



**JADIDLAR**



**ABDULLA**  
*Qodiriy*

**YOSHLAR ISHLARI**  
AGENTLIGI



Jadidlar



**ABDULLA  
QODIRIY**

YOSHLAR NASHRIYOT UYI  
Toshkent-2022

UO'K 821.512.133.09-3  
KBK 83.3(50')  
K 25

**Karimov, Bahodir**

Jadidlar. Abdulla Qodiriy [Matn]: risola./Bahodir Karimov.  
— Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. — 160 b.

*Loyiha rahbari:*  
**Alisher Sa'dullayev**

*Muallif:*  
**Bahodir Karimov,**  
filologiya fanlari doktori, professor

*Ijodiy guruh:* **Qandil Boboqulov, Mehrinoz Abbosova**

XX asr o'zbek adabiyotining mumtoz namoyandasi, iste'dodli adib Abdulla Qodiriy o'zbek romanchilik maktabining asoschisi sanaladi. Uning asarlari o'zbekning har bir xonadoniga kirib bordi, har bir o'zbek kitobxonining sevimli asarlari qatoridan o'rin oldi. Abdulla Qodiriyning nomi asarlari bilan birga jahonga tanildi. Shu e'tibordan Bahodir Karimovning mazkur risolasida yozuvchining hayoti, ijodi, romanlari, satirik asarlari tahlili va qodiriyshunoslik xususida ma'lumot beriladi. Shu bilan birga, kitobdan adibning hikmatli so'zlari hamda boshqalar tomonidan e'tirof etilishi ham o'rin olgan.

Risola keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

ISBN 978-9943-6682-7-0

© B.Karimov,

© Yoshlar nashriyot uyi, 2022



“Buyuk adibimiz, o‘zbek romanchilik maktabining asoschisi Abdulla Qodiriy badiiy dahosi bilan yaratilgan yetuk asarlar milliy o‘zligimizni anglashda bugun ham beqiyos ahamiyat kasb etmoqda”.

**Shavkat Mirziyoyev**  
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti**

## ADIB HAYOTI

**U**lkan iste'dod egasi Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkentda bog'bon oilasida tug'ildi. Bo'lajak adib hayot mohiyatini, turmushdagi tirikchilik tashvishlariyu ziddiyatlarini juda erta angladi. XX asr av-



Abdulla Qodiriyning bolaligi

vali ijtimoiy hayotidagi tang holatlar yosh Abdullaning bolaligiga ham soya tashladi. U bolaligidanoq turmush tashvishlari ichiga sho'ng'idi. Shu ma'noda adib o'z tarjimai holiga oid manbalarda o'sha

zamonlarni xotirlab shunday yozadi: *"Men qaysi yilda va qaysi oyda tug'ilg'onimni*

bilmayman. Har holda bemavridroq bo'lsa kerak, kambag'al, bog'bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug'ulib, yaqinlarimning so'zlariga qaraganda, mustabid Nikolay taxtga o'tirgan yilida tug'ulg'onman. Boshida boy oilada tug'uldimmi yoki kambag'al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshg'a to'ymag'onidan, ustum tuzukroq kiyim ko'rmaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog'i faqat 80 yoshlik chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog'ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog' mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jovrashib chiqar ekanmiz". Abdulla Qodiriy bolaligida duradgorlikni o'rganadi; akasi bilan toqichilik qildi. Shuningdek, u esini tani-gan chog'idan boshlab, otasiga bog' ishlariga qarashadi. Bu yumush unga umr bo'yi hamroh bo'lgani ma'lum gap.



U dastlab musulmon maktabida, keyin rus-tuzem maktabi hamda Abulqosim shayx madrasasida ta'lim oldi. Adibning **otasi Qodir bobo** Turkiston tarixida o'tgan bir qancha hukmdorlar zamonida yashab, uzoq umr ko'radi. Abdulla Qodiriy tarbiyasi, ijodi va romanlarining maydonga kelishiga otasidan eshitgan voqea-hodisalar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham adib o'z asarlarida otasini ehtirom bilan tilga oladi, hikoyalaridan birini otasiga bag'ishlaydi. Adib o'z asarlarida



Abdulla Qodiriy o'g'li  
Habibulla bilan

mo'tabar **onasi Josiyat bibi** siymosidan ham prototip sifatida foydalangan bo'lishi tabiiy, albatta.

Abdulla Qodiriy  
1914-yili **Rahbar-  
bonu Rasulmu-**

hammad qiziga uylanadi. Ulardan **Nazifa, Habibulla, Adiba, Mas'ud va Anisa** ismli uch qiz va ikki o'g'il tug'iladi.

Abdulla Qodiriy odamlar orasiga kirib, jamiyat dardlarini, ayniqsa, Oziq qo'mitasining "**Oziq ishlari**" gazetasida ishlagan 20-yillarda ijtimoy-siyosiy muhit "o'yinlari"ni kuzatdi. Oriflar ko'zi oldidagi hayotni, uning oq-qora ranglaridan boshqa jihatlarini ham ma'rifat oyinasiga solib ko'rishadi.



Abdulla Qodiriy do'stlari bilan. 1924-yil



Ahli ma'rifat kuyunib yashaydi, yashab kuyinadi. Ayniqsa, san'atkor qalamini qo'liga tutgan ijodkor voqelikni obrazlar olamiga ko'chiradi.

Yozuvchi o'z vaqtida ijtimoiy hayotga, matbuot ishlariga faol aralasha boshlaydi. "Turkiston" gazetasining 1924-yil 15-sonida bosilgan **"Taqdir etarlik bir ish"** deb nomlangan xabar-maqolada shunday ma'lumotlar bor: *"Eski shahar vaqf bo'linmasi Julqunboyni o'z ta'minotiga olib, Maskovga o'qushqa yubordi. Jo'natish oldidan besh oylik maoshini qo'lig'a naqd berub, bir oylik mukofot ham berdi. Iqtisodiy idoralarimizning shunday qadr qilib, qilg'on himmatlarig'a ofarin deymiz va o'rtog'imiz Julqunboyg'a muvaffaqiyat tilab, o'zi uzoq ketsa ham, qalamining yaqinda turishini umid qilamiz"*. Shu yo'sinda Abdulla Qodiriy 1924-yil iyunidan 1925-yil iyun oylariga qadar Moskvada o'qiydi. Demak, Abdulla Qodiriy "eski shahar vaqf bo'linma-

si” hisobidan, uning iqtisodiy yordami bilan Moskvaga o‘qishga ketadi. Hayotiy dalillarini o‘rganishga ko‘ra, adibning Moskvadagi o‘qish davri roppa-rosa bir yilga — 1924-yil



“Mushtum”da A.Qodiriy nomiga ishlangan rasm

iyunidan 1925-yil iyun oylariga to‘g‘ri keladi. **“Maskov xatlari”** turkumini yozadi.

1926-yilda “Mushtum” jurnalida chiqqan **“Yig‘indi gaplar”** maqolasidagi “yuqori rahbarlarga tegadigan qaltis gaplari” uchun, ayrim muttaham hamkasblarining chaquvlari oqibatida adib

1926-yili 8-mart kuni qamoqqa olinadi. “Abdulla Qodiriy — Julqunboyning 1926-yil 15-17-iyunda bo‘lib o‘tkan sudda so‘zlagan nutqi” da o‘sha maqolasining mohiyati, satirik janr tabiati tahlil qilinib, undagi mulohazalar “**Ovsar**” tilidan faqat ishchi-dehqon manfaati kuzatilib aytilgani” ga, “hukumat kishilariga bo‘lgan gaplar, o‘rtoqlik hazili” ekaniga urg‘u beradi. Chaqimchilar xususida yozadi: *“ Ammo bir necha shaxslar bu maqolani o‘zlarining, bilmadim, qandog‘dir tarozulariga solib, zararlik topishlari ersa g‘arazgo‘ylik, tirnoq ostidan kir izlashdan boshqa narsa emasdir”*. Adib o‘z ijodini himoya qilib, yozgan fikrlari xususida jasorat bilan aytadiki: *“ Men to‘g‘riлик orqasida bosh ketsa “ih” deydiringan yigit emasman”*. So‘zining oxirida yana ta’kidlaydi: *“ So‘zim oxirida odil sudlardan so‘rayman: Garchi men turlik bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan, ham anglashilmovchiliklar orqasida, ikkinchi oqlanmaydurg‘on bo‘lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko‘zlarning ko‘ngli uchun*

*bo'lsa ham, menga eng oliy bo'lg'on jazoni bera ko'ringiz. Ko'nglida shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmog'on sodda, go'l, vijdonlik yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha, ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so'rayman. 1926-yil 16-iyun, Samarqand".*

Shundan keyin Abdulla Qodiriy hayoti va ijodida nisbatan o'zgarishlar yuz beradi: ijtimoiy hayotga aralashuvi, matbuotdagi faolligi nisbatan susayadi.

1932-yili bir necha o'zbek adiblari bilan birga Moskvada Butunittifoq yozuvchilari uyushmasining Tashkiliy qo'mitasining majlisida qatnashadi. Shuningdek, 1934-yili Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq yozuvchilari uyushmasining 1-Quriltoyida ishtirok etadi.

1935-yil 10-mart Abdulla Qodiriy "Yosh leninchi" gazetasining adabiy to'garagida yosh

yoʻzuvchilar bilan uchrashadi va ijodiy tajribasidan soʻzlab beradi.

1936-yil iyul oyida Qozon shahrida boʻlib, Tatariston yoʻzuvchilarining 1-Quriltoyida ishtirok etadi.

Kolxoz hayotidan olib yoʻzmoqchi boʻlgan yangi asariga manbalar toʻplash uchun Toshkent atrofidagi qishloqlarni kezadi; ijod bilan mashgʻul boʻladi. Garchand adib goʻzal asarlar yoʻzib, oʻz xalqining maʼnaviy dunyosini bebaho asarlar bilan boyitayotgan boʻlsa ham, mustabid tuzum uning qadriga yetmadi. Qayta dushmanga chiqardi. **Adib 1937-yil 31-dekabr kuni hibsga olindi.** Sherkon Qodiriyning yoʻzishicha, oʻshanda tergov mahali ham: *“Menga qoʻyilgan ayblarni boshdan-oyoq rad etaman. Haqiqat yoʻlida har qanday, hech qanday jazodan, qiynoqdan qoʻrqmayman. Agar otmoqchi boʻlsalaring,*

ko'kragimni kerib turaman..."<sup>1</sup>, deb mardona turadi. Adib o'zining "Har kim bir nima yozar ekan, oldin vijdonini tarozu qilsin-da qalam yuritsin"; "Qo'rqoqlik vijdonsizlikdir"



kabi so'zlariga hayoti davomida amal qildi. U cho'zilgan tergovlardan keyin hech bir aybi

<sup>1</sup> Qodiriyning qo'msabi. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. 6-bet.

isbotlanmagan holda **1938-yil 4-oktabrida xalq dushmani sifatida qatl etiladi.**

Abdulla Qodiriy manglayiga qatag'on qurbonlari silkiga tizilishdek bir qismat bitilgan edi.

Ijodkor hayot yo'li, ijodiy biografiyasida, xususan, Abdulla Qodiriy tarjimai holi tavsifida uning o'z qo'li bilan yozgan turli janrdagi asarlari, zamondoshlarining xotiralari, farzandlari tomonidan bitilgan hujjatli, xotira asarlari va ayniqsa, arxiv hujjatlarida muhrlanib qolgan ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Abdulla Qodiriyning hayot yo'li haqiqat uchun kurashlarni eslatadi. Adib asarlarida bu tushuncha badiiy liboslarga burkanadi. O'zbek millatining zavqiga zavq qo'shadigan, qalbiga go'zallik olib kiradigan asarlari haqqoniyatga da'vatdek jaranglab turadi.

Abdulla Qodiriy oqlangandan keyin **1958-yildan boshlab, uning qutlug' nomi, asarlari xalqqa qaytarila boshlandi.** Adib va uning asarlari haqida qator tadqiqotlar va risolalar maydonga keldi.

1991-yil O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligi e‘lon qilingandan so‘nggina Abdulla Qodiriyga yuksak hurmat va ehtirom ko‘rsatila boshlandi. Abdulla Qodiriy **Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti va “Mustaqillik” ordeni** bilan taqdirlandi.

Adibning farzandlari — Habibulla Qodiriy **“Otam haqida”**, Mas‘ud Abdullayev esa **“O‘tganlar yodi”** asarlarini xotira yo‘sinida yozib, ularda adib hayot yo‘lining ma‘lum bir qirrasini aks ettirishdi. Habibulla Qodiriyning farzandi Xondamir aka bobosining merosi, xususan, romanlarining qiyosiy nashrlari bilan shug‘ullandi. Yuqorida nomi tilga olingan adibning nabirasi Sherkon Qodiriy — yozuvchi. Uning **“37-xonadon”**, **“Do‘lvor yigit”** degan kitoblari nashr bo‘ldi.

**Abdulla Qodiriy haqida** Xayriddin Sultonov **“Ra‘no gulining suvi”**, **“Moziydan bir sahifa”**, Abdulhamid Ismoil **“Jinlar**



**bazmi yoxud katta o‘yin”**, Xurshid Do‘st-muhammad **“Yolg‘iz”** kabi asarlar yozdi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga doir arxiv manbalarini o‘rganish natijasida Nabijon Boqiyning **“Qatlnoma”** nomli hujjatli qissasi maydonga keldi.

Adibning hayoti, ijodiga bag‘ishlab hujjatli film, asarlari asosida kinofilm va pyesalar paydo bo‘ldi. **“O‘tkan kunlar”** va **“Mehrobdan chayon”** romanlari negizida **badiiy film, videofilmlar** ishlanib, sahnalarda namoyish etildi. O‘zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzo tomonidan Abdulla Qodiriy asarlariga qator rasmlar ishlandi.

2019-yil dekabrda Toshkentda Abdulla Qodiriy yashagan uyda, shuningdek, poytaxtning Abdulla Qodiriy bog‘ida **muzeylar tashkil etildi.**

Toshkent shahrida **Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi** ishlab turibdi.

---



# IJODI





**A**bdulla Qodiriy Aijodiy faoliyatining boshlanishi XX asr boshiga to'g'ri keladi. "Sadoyi Turkiston" gazetasining 1914-yil 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy

imzosi bilan **"Yangi masjid va maktab"** sarlavhali xabar bosiladi. Bu bo'lajak adibning matbuotdagi **birinchi chiqishi** edi. Oradan ko'p o'tmay Abdulla Qodiriy **"To'y"**, **"Ahvolimiz"**, **"Millatimga"**, **"Fikr aylag'il"** kabi she'rlarni yozdi. "Fikr aylag'il" she'rida oqil insonlarga murojaat qilib:

*Oqilo, fikr aylagilki, na ishlayur ahli vatan,*

*Qaysi fosiq, qaysi johil, qaysisi bo'ldi chapan? – deb kuyundi.*

Millat ahvolini o'nglash uchun g'ayrat kerak. Qodiriy o'z tengqurlari bo'lgan yoshlar g'ayratidan, hammaslamlari bo'lgan ziyolilar shijoatidan umid qiladi. Millatni uyg'otish, ma'rifatni ulug'lash, Vatanni e'zozlash, ilmga da'vat — bularning bari jadid davri adabiyotining asosiy motivi. She'rlarida jaholatni, nodonlik va ilmsizlikni qoralaydi. Uningcha, nodon kimsa uchun har to'rt fasl ham baravar — qish, “jaholat sassig'i” har qanday odam ko'nglini behuzur qiladi. Bunday tuban hollardan qutulishning yo'li maktablar ochish, ilm-ma'rifat o'rganishdir. Yana ta'kidlaydiki, bo'yniga tillo tumor taqqan qizlarni “o'ylamangiz olim deb, jumlasini naf'siz, ziyon”. Adibning davr manzaralariga munosabati, o'z so'zi bilan aytganda “hasrati” shunday. Jaholat dardlarining da'vosi — ma'rifat. Darhaqiqat, hamma zamonlarda bilganlar bilan bilmaganlar, o'qiganlar bilan o'qimaganlar, ma'rifatlilar

bilan johillar o‘zaro farqlangan. Ular orasiga tenglik alomatini qo‘yish mumkin emas. Ma‘rifat ziyosidan bahra olish — millatning qalbini nurlantirish demakdir. Zero, Abdulla Qodiriyning sodda she‘rlari, mitti hikoya va hajviyalaridan tortib to ulkan romanlarigacha bo‘lgan adabiy merosida inson qalbining, o‘zbeklar turmush tarzining turli qirralari aks ettiriladi.

Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalarini millatparvarlik, ma‘rifatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib, jadidchilik g‘oyalari bilan sug‘orilgan edi. Muallif unda xalqning zabun holatidan kuyunib so‘zlaydi, jaholatni qoralaydi, ma‘rifatni ulug‘laydi; turli maishiy dog‘lar sabab kirlagan yuraklarni adabiyot bulog‘ining pokiza suvi bilan yuvishga qaror beradi. Millatni ogohlik, uyg‘oqlik va fikrlashga chorlaydi. Adib ana shunday jadidona kayfiyatdagi

asarlarida millatni ichdan yemiradigan illatlarni tanqid qiladi; xalqni o'zligini anglashga, yangilikka chaqiradi.

**“Baxtsiz kuyov” dramasi (1915) haqida.** Adib o'z dramasini bevosita Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi ta'sirida yozilganini e'tirof etadi.

Turkiston maishiy hayotidan olib yozilgan “Baxtsiz kuyov” dramasi Abdulla Qodiriy ijodining ilk davriga tegishli bo'lib, sarlavhasidan keyin muallif uni “to'rt pardali fojia” deb ataydi. **Dramada hashamatli to'y, ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko'ngilsiz oqibatlarini masalasi o'rta qo'yiladi.** Unda maishiy turmushdagi illatlardan biri — isrof, to'yda qiz uchun o'rinsiz katta qalinlar solinishi, shariati islomga amal etilmaslik natijasida bir oilaning barbod bo'lishi ko'rsatiladi.

Boy eshigida ishlab yurgan xizmatkor **Solih ismli yigit** amakisi Abdurahimning masla-

hati bilan Fayziboyning **Rahima** ismli qiziga uylanadi. To'y maslahati mahali o'rtadagi katta xarajatlar isrof ekanini ellikboshi ta'kidlaydi. Biroq uning gaplariga domla-imom ham, qiz uzatib, orzu-havasli to'y qilishni niyatlagan Fayziboy ham quloq solmaydi. Fayziboy o'z qizini turmushga uzatar ekan, mahalla-ko'y, odamlar gap qilishidan qo'rqib, kuyov tarafdin haddan ortiq ko'p narsa undirish payida bo'ladi. Bu jarayonda ellikboshining: "Olug'-solug' qilinsa, kuyovdan ko'b oqcha olinsa, qarzdor bo'lub qolsa, yaxshi emas, deyman. Keraklik narsalarga ozroqqina oqcha olub, nikohlab bersangiz, shariatdagi ish bo'lur edi", degan gapiga qizning otasi aytadiki: "Olug'-solug' bo'lmasa to'y to'y bo'ladimi? Mening ham boshimda bir qizim bor, orzu-havaslik dunyo, yaxshilab orzu-havas qilsam degan niyatim-dabor". Domla-imom Fayziboyni insofqa chiqirish o'rniga "xalqqa kulgi bo'lasiz. Olug'-

solug' qilinmasa bo'lmaydur" deb turib oladi. Hatto ellikboshining fikriga qarshi chiqib uni ayblashgacha boradi. Olug'-solug', ya'ni qizga qalin uchun nimalar so'ralganini tasavvur qilish uchun ushbu ro'yxatga bir nazar tashlashning o'zi yetarli bo'ladi: "...besh yuz so'm pul, o'n beshqo'y, bir ot, to'rt botmon bug'doy, to'rt botmon birinch, kajavada mayiz, turshak, o'n yashuk har xil qand va shirinlik, yigirma quyum holva, uch ming dona katta non, qozonda nisholda, qizlariga o'n bosh-oyoq kiyim, kimxob, duxoba, shohi, atlas, movut, chidakon, chit va boshqalar; har biridan ko'ylak, kamzul va mazkurlarga loyiq qimmatbaho ro'mollar, yana uch dona paranji shohi, duxoba, adras, uch dona kavush-mahsi, qavm-qarindoshlariga, o'zlariga, zaifalariga bosh-oyoq kiyim". Ellikboshining e'tiroziga qaramay, to'y maslahati jarayonida pul miqdori yana oshiriladi.

Tabiiyki, bunday xarajat uchun Solihda



pul yo'q edi. U amakisining qistoviga ko'ra olti oyda qaytarish sharti bilan shartnomaga qo'l qo'yib, boydan qarz oladi. Agar qarzni o'z vaqtida to'lay olmasa, boyga hovlisi va boshqa uy-ro'zg'or narsalarini berishga kelishiladi. To'y bo'lib o'tadi. Solih bilan Rahimanning turmushi yaxshi, biroq qarzni qaytarish vaqti bir zunda yetib keladi va, hatto, vaqtdan o'tib ham ketadi. Solihga amakisi ham, qaynotasi ham yordam bera olmaydi. Oxirgi sahnada bunday qashshoqlik va sharmandali yashashdan o'limni afzal ko'rgan Solih bilan Rahima o'zlarini o'zlari pichoqlab o'ldirishadi.

Qarz bergan sudxo'r boy uchun mol-dunyo muhim, yonidagi ruscha aralash so'zlaydigan pristav ham o'sha davrning bosqinchilik siyosatiga xizmat qilayotgan chor ma'murlaridan biri. Fojia va uning sabablari bilan ishi yo'q. O'z millatini ichdan kemiradigan sudxo'r boylar toifasining yonini olish ular uchun haqiqat

va haq-huquq himoyasi sanaladi. Shu e'tibordan dramada ozgina bo'lsa ham, davr siyosatining kichik manzarasi ham aks etgan, albatta.

“Baxtsiz kuyov” dramasida **ellikboshi nisbatan uyg'onayotgan, ko'zi ochilgan, ortiqcha isrofga, keraksiz sarf-xarajatlarga qarshi turgan obraz sifatida gavdalandi.** Ellikboshi o'z fikrini o'tkazish uchun boy, domla-imom bilan tortishadi. Ularga vaziyatni tushuntiradi. Biroq foydasi bo'lmaydi. Dramadagi ellikboshi obraziga kelgusida jadid adiblari ijodida yuz ko'rsatadigan ilg'or ziyoli obrazining ibtidosi sifatida qarash o'rinlidir. Dramaturg ilgari surgan asosiy g'oya ham shu ellikboshi obrazi zimmasiga yuklanadi. U asar oxiridagi fojiviy sahna tomoshabinlariga qaratib: *“Shariati mustafoga bo'yunsuninglar, endi ko'zlaringizni ochinglar. Bid'at to'yga isrof bo'ladurgan oqchaga o'g'lingizlarni o'qutdinglar, yoki jamiyati xayriyaga iona qiling-*

lar. O'g'ul o'qutmoq yaxshi ham farzdur, to'yga isrof qilmoq bid'atdur", deb aytadi. Ilmning qadriga yetmaslik, jaholatga berilish, urf-odatlardagi bema'ni bid'atlar — bularning barchasi millatni taraqqiyotdan to'sadi. Abdulla Qodiriy bu asarida islom ma'rifatini, jaddilarga xos ilg'or g'oyalarni ilgari surish yo'lidan boradi. Millat fojiasiga sabab bo'ladigan bid'at amallardan odamlarni ogohlikka chaqiradi. O'z vaqtida teatr sahnalarida juda ko'p marta namoyish etilgan bu drama o'z oldida turgan adabiy-ma'rifiy vazifasini yetarlicha bajargan edi.

Hech bir odam bu yorug' olamda birovlar uchun yashamaydi. Boshqalar ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun turli qiyofaga kirish munofiqlik sanaladi. Boshqa birovlarning g'iybatlariga e'tibor bermasdan har bir inson o'z holiga, o'z ko'ngil mayliga mos hayot kechirishi lozim. Drama ayni fikrning talqiniga ko'ra bugun

ham dolzarb. Bir asr avvalgi o'zbekning to'yi bilan bog'liq hodisalarning allaqaysidir ko'rinishlari bugungi hayotda ham uchrab turibdi.

### **Hikoyalari haqida**

“**Juvonboz**” hikoyasi, yozuvchining o'zi e'tirof etganidek, “tatarlarda chiqib turg'on hikoya va ro'monlarga taqlidan” yozilgan edi. Hikoyada o'qishni tashlab buzuq, shaltoq yo'llarga kirib ketgan boyvachcha otasining mol-mulkini sovuradi, iqtisodiy jihatdan oilani sindiradi; ota-onani dog'da qoldirib, oxiri jinoyatga qo'l uradi, qamaladi...

Aynan “Juvonboz” asari yozilayotgan bir davrda “Turkiston viloyatining gazetasi”da (1914-yil 24-iyun, 50-son) “Hayo” imzosi bilan “Julqunboy bilan mubohasa” degan maqola bosiladi. Aftidan, “Hayo” Julqunboyi taraqqiyparvar jadidlarga, zamonaviy gazeta-jurnallarga targ'ib-tashviq etib yurgan ko'rinadi. Ammo Julqunboy taraqqiyparvarlardan biri-

ning yonida “besaqol bolasi birlan mast” bo‘lib yurganini ko‘rib qoladi. Taraqqiyparvarlardan ko‘ngli soviydi. Maqola muallifi Julqunboyga tanbeh ma’nosida bir-ikki iflosga qarab, butun taraqqiyparvarlar ustidan hukm chiqarish yaramaydi degan kabi so‘zlarni aytadi. O‘zini “Men taraqqiyparvarman” deya tanishtirib, ammo aslida o‘zini fahsh ishlarga urgan ko‘zbo‘yama-chi munofiqlar o‘sha zamonlarda ham bo‘lgan. Mirmuhsin Shermuhammad iborasi bilan aytganda: “Men dinchi” deb o‘ziga yolg‘on ism bergan bir xoindan millatga qanday zarar tegsa, shuningdek, “Men taraqqiychi” deb, o‘rus marjasi ortidan tun-kun fohishaxonaga yugurib yurgan qisqa kiyimli milliy xuliganlardan-da shu darajada zarar tegadi!”<sup>1</sup>.

Abdulla Qodiriyning maqsadi ham “Juvonboz”ni yozish orqali o‘sha tuban odatlar-

---

<sup>1</sup> Mirmuhsin. Dinchilar, taraqqiychilar // “Sho‘ro” jurnali. 1917-yil 20-son.

ning, "milliy xuligan" va "sharlatan"larning millat boshiga keltirayotgan zararini uqtirish edi. Hikoyaning xulosasi ham yozuvchining pokiza niyatini anglatib turibdi: *"Turkistonda bunday ishlar hamisha davom etib turganini ko'ruvchi va biluvchi har bir aqlli musulmon kishi shariati islomiyada man' qilinishi, mundog' xunuk besaqolbozlik odatini davom etdiruvchi Turkiston musulmonlari ahvoli-ga afsuslar qilib, bekorga necha minggacha pullarni isrof qiluvni, besaqol talashda musulmon musulmonga dushmanlik ortdiruvini va bir-birlaridan qon to'kuvini, yosh-yosh yigitlar o'n-o'n besh yillarni Sibirda ming turlik azob va xorlik bilan zoe qiluvlarini ham dunyodagi g'ayri millatlarga musulmonlik ismini bulg'atib ko'rsatuvlarini va o'zlari kulgi bo'lmoqlarini yana bu dunyoda xor va oxiratda xudoning qahri g'azabiga giriftor, Muhammad alayhissalomning oldilarida sharm-*

*sor va shafokatlaridan benasib bo'luvlariga achinib, mundoq xilofi shar' koni bo'lg'on Turkistondan boshqa shaharlarga qochib ketgusi kelur edi".*

“Juvonboz”da — adib ijodining dastlabki namunasida, har holda, A.Qodiriy iste'dodidan nishona bor. Oybek hikoya tilini “duoyi salom” tili “xalq tilidan uzoq”, bo‘yoqsiz, jonsiz, “quruq” bir til deya tanqid etadi. Bu holat yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanish jarayoni, tarixiy shart-sharoit bilan izohlana-di, albatta. Garchi adibning dastlabki asarlari yuksak badiiyatli hikoya yoki drama darajasiga ko‘tarilmagan bo‘lsa ham, Abdulla Qodiriy ijodiy faoliyatining boshlang‘ich davrini ta-savvur etish uchun juda muhim sanaladi.

Yozuvchi “Juvonboz”dagi ayrim sahnalar keyinchalik yozgan “Kalvak maxzumning xoti-ra daftaridan” hajviyasi, “Mehrobdan chayon” romanining ayrim o‘rinlarida badiiy aks ettir-gan edi.

“Juvonboz” va “Baxtsiz kuyov”lar mashqi tufayli yozuvchining qalami charxlanib bordi. Navbatdagi **“Uloqda”** (1916) hikoyasida jiddiy realistik o‘zgarish yuz berdi. Oybek bu haqda yozadi: *“Abdulla Qodiriy turmushni badiiy ko‘rsatishda tez o‘sadi. Nasrchilikda uning ustaligi mukammallashadi. 1916-yillarda yozilgan “Uloqda” nomli hikoyasi — “Juvonboz” va boshqa asarlariga nisbatan tenglashtirmaslik darajada yuqori bir asar. Yozuvchi hikoya texnikasi, priyomlarini egalagan. Voqealarni ochish, bularning inkishofi va yeshilishi ovro‘pa novella forma ravishidadir. Bu asarda jonli bo‘yoqli obrazlar uchraydi. Kishilarning portreti aniq, qabartib beriladi... “Uloqda” hikoyasida tashviqotchining, voizning o‘rnini san‘atkor oladi<sup>2</sup>”*.

Haqiqatan, Abdulla Qodiriyning ijod maydonidagi tajribasi asardan-asarga juda tez

<sup>2</sup> Oybek. Abdulla Qodiriyning ijodiy yo‘li. — T.: O‘zSSR Fanlar komitetining nashri, 1936. — B. 6-7.



o'sib boradi. Navbatdagi asari — “Uloqda” hikoyasi uslubi, bayon tarzi va pafosiga ko'ra, avvalgi asarlaridan jiddiy farq qiladi. Hikoya, nomidan ham sezilib turibdiki, xalqning azaliy-qadimiy udumlaridan biri uloq haqida. Bunda uloq voqeasi beg'ubor o'smir bola — Turg'un tilidan hikoya qilinadi. Bu badiiy uslub hikoyaga ajib bir samimiyat baxsh etadi. Yozuvchi xolis turib, hodisalarga aralashmay, ularni bolaning toza nigohi orqali bor holicha tasvirlaydi.

**“Shodmarg” hikoyasi.** Ziyo Said ma'lumotiga ko'ra, “Najot” gazetasining shiori “Tenglik, hurriyat, adolat” edi. Munavvar qori boshchiligida chiqqan bu gazeta jamoasi “Musulmonlar birikingiz”, “Biz fazilatimizni orttiraylik, kamchiligimizni tugallataylik” deya millatga xitob qiladi. Gazetaga yozib turguvchi qalam ahli qatori Abdulla Qodiriy (Julqunboy) ham tilga olinadi. Julqunboyning

“Shodmarg” hikoyasi **1917-yili martida ana shu “Najot” gazetasi bosiladi.**

“Shodmarg” — kichik hikoya. An’anaviy tarzda adibning ikki romani, ayrim hajviya va hikoyalarini tilga oladigan mutaxassislar ham bu “Shodmarg”ga uncha e’tibor berishmaydi. Shu bois qodiriyshunoslik tarixida hikoyaning tahlil va talqinlari, unga munosabatlar deyarli yo‘q hisobi. Hikoya o‘lim hodisasi bilan tuganchiga yetadi. Sababi, ijtimoiy quvonch va surur. Hajmi kichik, mazmuni cho‘ng. Syujeti qanday? Hikoyada **mulla Karim hojining** holidan, dunyoqarashidan, topish-tutishidan, boy-kambag‘alligidan so‘z ochiladi. Moddiy ahvoli yaxshi. Ammo u juda ko‘p “jabr-u jafolar tortgan” odam. Sababi nima? Dunyoqarashining ochiqligi, fikrining to‘g‘riligi. Yozuvchi ta’biri bilan aytganda, “zamonadan xabardorligi, musulmonlarning foyda-zarariga tushunuvchiligi”dir. Tushunganga qiyin, vo-

qelikni bilib, anglab tafakkuri chig'irig'idan adolat mezoni bilan o'tkazuvchi odamga oson emas. Jaholatni, qabohatni ko'rib ko'z yumish vijdonli yigitga yarashmaydi. Ustiga-ustak, "xatmi kutub" qilgan mulla Karim hoji teg-rasidagi hodisalardan iztirobga tushmasligi mumkin emas. Mulla Karim hojining dardi adib dardiga esh. Avval zamonlarda, ya'ni eski Chor hukumati davrida qirq yoshlarida-gi Karim pora evaziga qozilik mansabini so-tib olgan kimsalarga qarata "Xoinlar, zolimlar, zolim yordamchilari" deb qichqiradi. Qozilar darhol mulla Karim ustidan "yuqori"ga "Jazo-sini beruvingiz marju'dir. Mundoq hukumatka qarshi kishilarni yo'q qiluvingizni o'tinamiz" degan mazmunda arz qilishadi. Eski huku-mat shu chaquv sababli Karimni hech kimdan hech nima surishtirmasdan turmaga tashlaydi. Oradan besh oy o'tgach, savol-javob bo'la-di. Mulla Karim — to'g'riso'z odam. Shu

to'g'riligi ortidan azob chekadi. Tergovda undan "Hukumatni zolim debsan?" savoliga hech tap tortmasdan, o'z maslagidan tonmasdan "Munday hukumatni takroran "zolim" va hukumat tarafidan qo'yilgan ma'murlarni "zolim yordamchilari" deyman" deb yurak so'zini aytadi. Sud qarori bilan berilgan o'lim jazosi o'n beshyillik surgunga almashtiriladi. Oradan o'n besh yil o'tib, jamoat ishiga aralashmaslik sharti bilan o'z vataniga qaytariladi. Haj safariga boradi. Adolatga umid qiladi, Xudodan zolimlarga jazo tilaydi. Bir marta pristavga egilib, ta'zim qilmagani uchun yana uch oy turmada yotadi. Tirik jon — o'lmagan banda. U yerdan omon chiqadi. Qirq yoshlaridan ijtimoiy muammolarga aralashib jabr ko'rgan, hojining yoshi yetmishlarga borib qolgan, qartaygan kunlari yangidan-yangi xabarlarni eshitadi. Ularni o'g'li bozordan topib keladi. Shunday saodatli kunlarning birida o'g'li yana

gap topib keladi va otasidan suyunchi so‘raydi: “Suyunchi bering, ota! Xalq va askar bir bo‘lib, hukumatni o‘rnidan tushurgan, hamma ish xalq qo‘liga o‘tkan, eski hukumat ma‘murlari o‘rnidan tushurilib, qo‘lga oling‘an, ministrlar ham hibbs etilg‘an, podsho ham qamalg‘an, hurriyat e‘lon qiling‘an”, deb aytadi. Bu hodisa — tarix. Suyunchi so‘rashga munosib bu hodisa 1917-yil fevraldagi chor Rossiyasi va unga tobe bo‘lgan Turkiston zaminidagi ijtimoiy-siyosiy tuzum evrilishlarining bayonidir. Muvaqqat hukumat davri oxiriga borib, yuzaga chiqqan Turkiston muxtoriyati ham bor-yo‘g‘i ikki oycha umr ko‘rdi. So‘ng qonga botirilib, barbod qilindi. Hali bu umidli kunlar oldinda edi. Umid — katta. O‘g‘lidan bu quvonchli xabarni eshitgan va shunda bayramona kunlarga yetgan mulla Karim hoji mamnun bo‘ladi, quvonadi, shodlanadi. Julqunboy hikoyasini bunday tuganchiga yetkazadi: “Mulla Karim

ota: — Hurriyat?! — dedi, orqasiga yiqildi. O‘g‘illari yuziga suv sepdilar. Lekin ul hushsiz emas edi, balki shodmarg<sup>3</sup> bo‘lg‘an edi”. Hurriyat shodligi, hurriyatga, erk va ozodlikka, zolimlar zulmidan emin yashashga tashnalik ifodasi ana shunday. Abdulla Qodiriy asarlaridagi obrazlar haqgo‘yligi, to‘g‘ri so‘zi ortidan jabr-u jafolarga uchragan shunday yuksak va olijanob maqsadlar yo‘lidan yuradigan qahramonlardir. Adib XX asr boshlaridagi ijtimoiy o‘zgarishlardan umid qildi. Bu kayfiyati asarlaridagi mulla karimlarga ham ko‘chdi. Ammo hech kim ertaga bo‘ladigan hodisalarni, boshiga keladigan yaxshi-yomon kunlarni taxmin qila bilmaydi. Mulla Karim hoji haqiqatni so‘zlagani uchun naqadar jabr-u jafolarga duch kelgan, o‘z tegrasidagi mansabparast, xudbin, haromxo‘r kimsalar chaquvi ostida zindonband va surgun qilingan bo‘lsa,

<sup>3</sup> Shodmarg — shodlik kayfiyatidan o‘lmoq.



Abdulla Qodiriy manglayida ham xuddi shunday yozg‘it bor edi. Gohida ulkan qalb egalari o‘z asarlarida o‘zlari bilmagan ravishda shunday bayonlarni yozishadi. Aslida hamma zamonlarda ma‘rifat bilan qabohat, to‘g‘ri bilan o‘g‘ri, halol bilan harom o‘rtasida xuddi shunday ziddiyatlar bo‘lib kelgan. Eshlasangiz kerak, Otabek bilan Anvar zulmkorlar tikkan dor tagiga borib, adib “ko‘magi”da omon qolishadi. Keyin Otabek chorizm bosqinchilari bilan jangda shahid bo‘ladi. “Shodmarg” hikoyasidagi Mulla Karim hoji hurriyatdan quvonadi, hushsizlanadi, “shodmarg” bo‘ladi. Abdulla Qodiriy bolsheviklar, ishchi-dehqon hukumatiga katta umidlar bog‘ladi. Jasoratni aynan shulardan olganiga adib bir necha bor urg‘u beradi. Ammo bosqinchilik siyosatining shakli o‘zgargan, mohiyati esa avvalgi holicha qolgan edi. Xuddi asarlaridagi ayrim qahramonlar kabi, qismat ekan, Abdulla Qodi-

riy erkinlik, hurriyat orzusi bilan yashab, oxiri adolatsiz tuzumning qatag'oniga duch keldi.

Abdulla Qodiriyning yozgan asarlari bilan o'z millati vakillarini tafakkur egasiga aylantirishni, mudragan kimsalarni uyg'otishni niyat qilgan edi. Shu orzuda yozilgan asarlari mustabid sho'ro davrida ham yashirincha o'qildi va o'z tarixiy missiyasi-vazifasini a'lo darajada bajardi. Sovuq qishda yiltillagan quyosh taftiga aldanib erta gullab qo'ygan bodomga o'xshab, Mulla Karim hoji oxund nisbatan erta quvonganini, hali chin hurriyat uchun bu Vatanning fidoyi farzandlari yetmish to'rt yillik uzun bir yo'lni bosib o'tishlari kerakligini, o'sha armonli tarixiy yo'li ortda qolgach, bugunga kelib faqatgina biz bilib, anglab turibmiz. Chin quvonchli kunlar, chin hurriyat va Vatanning chin istiqloli endigina navqiron o'ttiz yoshga to'ldi. Abdulla Qodiriy va uning qahramonlari orzu qilgan haqiqiy erkin va



ozod kunlarda biz istiqomat qilmoqdamiz. Zulm, zolim, erksizlik, tengsizlik, adolatsizlik jafolarini faqatgina boshidan o'tkazgan, o'sha muhitda yashab, o'z tanalarida sinab ko'rgan insongina teran tushunadi. Ammo biror kishiga bunday azobli kunlarni hech kim tilamaydi. G'araz shuki, yaqin o'tmish voqea-hodisalari-ning badiiy talqinlarini o'qib-anglab-tushunib, tasavvur qilib, zamonaga, haqiqiy hur kunlarga, mustaqillikka chin yurakdan shukronalar aytmoq lozim, albatta.

**“Jinlar bazmi” hikoyasi.** Dastlab 1921-yilda “Sharq chechagi” jurnalida bosiladi. “Jinlar bazmi”ni adib “mavhum hikoya” deb nomlaydi. Bu bilan asarda bayon qilingan voqea hayotda yuz bo'lish-bo'lmasligi tomonini e'tiborda tutadi. Aslida, badiiy adabiyot qalamga olinadigan voqea-hodisalar tasavvur mahsuli ham bo'lishi mumkin. Biroq juda ko'p odamlar jinlar va bu so'z ko'pligi bo'l-

mish ajinalar to'g'risida gap ketganda, ularning borligiga ishonishmaydi. Holbuki, Qur'oni karimda jinlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi, yetmish ikkinchi suraning nomi "Jin" deb ataladi. Shuning uchun jinlarning borligiga har bir musulmon odam iymon keltirishi lozim.

"Jinlar bazmi" hikoyasi bola tilidan so'zlab beriladi. Bola bu hikoyani ko'p bora eshitgan; shuning uchun unga otasi so'zlab beradigan "jinlar bazmi" qo'rqinchli, "ortiqcha vahimali" tuyuladi. Qo'rqqani sabab bola ko'rpasiga qattiqroq o'ranib oladi.

Otasi hikoya qilar ekan, bola o'z qalbida kechayotgan holatni ora-orada bildirib turadi. Hikoyaning o'q ildizi jinlar bazm qilayotgan Hamdam xumdonchining maydonidir. Shu maydonga kelguncha O'sar aka, ya'ni hikoyani tinglayotgan bolaning otasi bog'da toklar parvarishi bilan mashg'ul bo'ladi. Shom o'tib, kun xuftonga tomon ketgan mahali uyi tomon

yo'lga chiqadi va jinlar bazmiga duch keladi. O'sar akaning tasvirlari, davradagi odamlar, cholg'uchilar, raqsga tushayotgan qizning holi — barchasi xuddi hayotda aniq bo'lgani kabi tasavvurga muhrlanadi. Bazm qilayotganlar O'sar akani o'z holiga qo'yishmaydi; "sudrab, tortib to'rga" chiqardilar. O'sar aka o'z holatini shunday so'zlab davom etadi: "Odatda majlisga kirib o'ltirgandan keyin fotiha o'qilar edi. Biroq ularning har turli savol va muomalalari bilan ovora bo'lib, fotiha o'qish ham yodimdan chiqqan". Bu hikoyadagi muhim nuqtalardan biridir. Ma'lumki, jin va shayton Alloh nomi zikr etilgan joyda o'z amallarini bajara olmay qoladi. Bu tushunchaga doir mo'tabar manbalarni Abdulla Qodiriy juda yaxshi bilgan. Ikkinchidan, muallif voqelik vaqtini shomga to'g'irlyaydi. Shom bilan xufton oraliq'ida esa jinlar bazm qiladi. Shaytonlar quyosh botgandan to tun zulmati cho'kkuncha

qo'yib yuborilishi haqida hadis bor. Tasvirga olingan har bir detalga, har bir so'zga jiddiy e'tibor beradigan Abdulla Qodiriy o'z qahramonini jinlarga xufton bilan shom orasida yo'liqtiradi. O'sar aka: "Qop-qorong'i maydon, bir ariq ichida turibman...", deb gapini tugatadi. Adib jinlarning bazm vaqtiga qo'shimcha ravishda makonini ham asosli ko'rsatadi. Chunki jinlar "ariq ichi" kabi chuqur joylarda ham yashaydi. Bularni eshitib yotgan bola voqelik muhokamasini cho'zmaydi: "Men otamning bu ko'rgan hodisasini muallim afandiga so'zlagan edim, kuldi:

— Vahima, xayolot! — dedi.

— Chindan ham vahimami, vahim bo'lsa, kishida qanday voqe bo'ladi? — deb so'ragan edim, afandim:

— Kelasi juma bolalar o'rtasida bu to'g'rida ma'lumot beraman, sen ham shu majlisda hozir bo'lsang, vahimning qanday voqe bo'lishini bilib olasan! — dedi.

Men, albatta, juma kuni maktabga borib, afandimizdan vahimning kishida paydo bo'lishini eshitaman. Vaqtingiz bo'lsa juma kuni siz ham boringiz". Eng muhimi, yozuvchi hikoyaga asos bo'lgan hodisaning "quruq xayol" yoki haqiqat ekani yuzasidan hukm bermaydi, masalani o'quvchi muhokamasi, fikrlab izlanishi uchun ochiq qoldiradi. Bunday original tuganchalar sababli o'quvchi tasavvurida hikoyaning davomi — ikkinchi umri boshlanishi tabiiy.

"Jinlar bazmi" hikoyasi yozilgan tarixiy muhitdagi o'zgarish yodga olinsa, Abdulla Qodiriy qalamga olgan bu hodisani ijtimoiy hayotga, jamiyatga bog'lagan holda tahlil qilish ham mumkin. Adib O'sar aka yo'liqqan bazm — cholg'ulardan taralgan kuy bois odamning goh mahzun, goh quvnoq holatga tushishi, davralarda ayollar bilan erlarning aralash-quralash o'tirishlari, bazm uyushtirib, yosh

qizlarning raqsga tushishlari — bular yangi jamiyat a'zolariga nisbatan adibning munosabatidir. Uzoq o'tmishdan davom qilib kelayotgan milliy an'analarning o'tgan asr boshida buzilishlarini, talofatga uchrashlarini adib kinoyaviy yo'sinda "jinlar bazmi"ga mengzayotgan bo'lishi ham mumkin. "Jinlar bazmi" hikoyasi badiiy bo'yoqlarga boyligi bilan ajralib turadi. Hikoyada adibning mahorati yaqqol seziladi: unda hayotiy va xayoliy tasvir uyg'unlashadi. Jinlarga yo'liqqan odamning ahvoli realistik bayon etiladi. Qolaversa, turlicha tushunish va tushuntirishlar uchun asos beradigan bu tipdagi asarlar g'oyaviy-badiiy jihatdan pishiqligi bois uzoq yillar o'z o'quvchilar diqqat-e'tiborini o'ziga tortib keladi.

Adibning "Uloqda", "Jinlar bazmi" kabi hikoyalari XX asr boshlari o'zbek hikoyachiligining eng yaxshi namunalari sanaladi.

Abdulla Qodiriy ijodida kichik asarlar, xususan, hikoyalar muhim o‘rin tutadi.

\* \* \*

Abdulla Qodiriyning 20-yillardan keyingi faoliyati asosan matbuot bilan bog‘langan: “Oziq ishlari” gazetasida muharrir, “Ro‘sta” nomli devoriy gazetada, “Ishtirokiyun”, “Qizil bayroq”, “Turkiston” gazetalari va “Inqilob”, “Kommunist yo‘ldoshi” jurnallarida ishlaydi. U **“Mushtum” hajviy jurnalining (1923) asoschilaridan biri sanaladi.** Abdulla Qodiriy vaqtli matbuotda yuzlab publitsistik maqolalar, hajviy asarlar yozdi. Uning asarlari matbuotda **Julqunboy, Ju-boy, Dumbulboy, Dumbulnisa, Kalvak maxzum, Toshpo‘lat tajang, Ovsar** kabi o‘nlab maxfiy imzolar bilan bosilib turadi.

**“Kalvak maxzumning xotira daftari-dan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydir?”** kabi hajviy asarlari bilan adib kulgusi “xarakter

kulgusi” darajasiga yetdi. U ijtimoiy hayotni kuzatdi — insoniylik a’moliga nomuvofiq voqealarga nisbatan turli yo’sinda hajviy-tanqidiy munosabatlarini bildirdi. O‘z davrining ayrim adiblari bilan matbuotda bahslashdi. **“Jasorat — ayb emas”**, **“Shallaqi”**, **“O‘jar ko‘r”** nomli maqolalari bahslar natijasi o‘laroq maydonga keldi.

Abdulla Qodiriyga **“O‘tkan kunlar”**, **“Mehrobdan chayon”** romanlari shuhrat keltiradi.

Adibning 1932-1934-yillarda zamonaviy mavzuda yozgan **“Obid ketmon”** qissasi 1935-yili alohida kitob holida nashr bo‘ldi. Asardagi Obid obrazi — o‘zbek adabiyotidagi noyob hodisa. Uni o‘zbek xalqining mehnat, dehqonchilik madaniyati bobidagi yetukligi timsoli deyish mumkin. Yozuvchi bu obraz tasvirida o‘sha davrda odat tusiga kirgan tor doiradan ancha chetga chiqib, umuminsoniy



qadriyatlarni ardoqlash yoʻlidan boradi; xolis turib ijtimoiy hayotning bir qancha tomonlarini haqqoniy koʻrsatadi. Ichki muammo-ziddiyatlarni ochib berdi, kolxoz tuzumi oxir-oqibatda odamlardagi tashabbusni, shaxsiy egalik, manfaatdorlik tuygʻusini soʻndirishini aytadi. Adib 30-yillar davr hodisalarini oʻrtahol dehqon Obid ketmon obrazi vositasida badiiy talqin qiladi.

Abdulla Qodiriy publitsistikasining mavzu-muammolar doirasi ancha keng. Ular orasidagi turmush, muhim tadbirlarni, yangiliklarni olqishlab, qoʻllab-quvvatlovchi, targʻib-tashviq etuvchi, murakkab insoniy taqdirlar haqida hikoya qiluvchi, qardosh xalqlar hayoti va xorijdagi voqealarga bagʻishlangan asarlari, bir qancha adabiy-tanqidiy maqolalari bor. Qodiriy XX asr 20-30-yillarida yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida badiiy asar tabiati, yozuvchi masʼuliyati, ijod psixologiyasi, dunyo

adabiyoti tajribalaridan o'rganish kabi masalalarni muhokama qiladi.

Tabiiyki, adibning **tarjimon sifatidagi** faoliyati ham tahsinga sazovor. Deylik, rus adabiyotida **A.P.Chexovning "Buqalamun"** hikoyasini, **Gogolning "Uylanish"** pyesasi hamda dunyo adabiyotidan **D.Didroning "Rohiba"** (parcha), **A.Dodening "Sao-datli Avgustinning aziz duosi"**, **E.Zolyaning "Lurd"** (parcha), **"Ruma"** (parcha), **"Evergard avliyoning karomati"**, **M.Tven "Dabdaba va tilanchilik"**, **"Muqaddas inkvizitsiya rohiblarining qiziq nayranglari"**, **"Rohiblar g'aroyiboti"**, **E.Keyroshning "Pater Amaruning jinoyati"** (parcha), **V.Margertning "O'rtoq"** (parcha), **S.J.Gusev-Orenburgskiyning "Kaxetinka"** kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. Bu manbalar ham o'zbek tarjimashunosligi tarixida o'ziga xos qiymat kasb etadi.

## Romanlari

**“O‘tkan kunlar” romani.** Abdulla Qodiriy nomi tilga olinganda bir entikib, hayratlar bilan Otabek va Kumush, Anvar va Ra’nolar taqdirini esga olmaydigan o‘zbek ziyolisi, adabiyot muhibi topilmasa kerak. Adibning badiiy so‘zida betakror joziba mujassam bo‘lgani bois “O‘tkan kunlar”ni necha topqir o‘qilsa ham, odam to‘ymaydi, zerikmaydi; qayta o‘qishga zarurat sezaveradi. Roman zavq-shavq bilan yutoqib o‘qiladi. Qayta o‘qishda asarning yangidan-yangi qirralari ochilib boradi. Bir o‘qilganda e’tiborsiz o‘tilgan tasvir va epizodlar boshqa safar diqqatni tortadi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga, voqea-hodisalar bayon usuliga tegishlidir.

Darhaqiqat, Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini yozish bilan **o‘zbek roman-chilik maktabiga asos soldi.** Yuksak talant



egasi — yosh adib qalami ostidan chiqqan birinchi o‘zbek romani favqulodda bir muvaffaqiyat va shuhrat qozondi. Roman XX asrning 20-yillarida yozilgan bo‘lsa ham, uning bosilishi kechikdi. Boshidagi bir qancha fasl dastlab “Inqilob” jurnalining 1923-1924-yilgi sonlarida chiqdi. Keyin 1925-1926-yillarda har bir bo‘limi alohida kitob holida nashr etilib, qo‘lma-qo‘l bo‘lib o‘qildi. “O‘tkan kunlar” yozilgan davr o‘zbek xalqi uchun mil-

latning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o'zni masalasi hayot-mamot ahamiyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri ustida astoydil qayg'urdi, o'zicha najot yo'lini izladi. Zamon taloto'plari adib qalbini iztirobga soldi. **“O'tkan kunlar”** romani orqali yozuvchi xalqning milliy ong-u shuurini uyg'otmoqchi bo'ldi; unda **“tariximizning**



eng kir, qora kunlari” — yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keyingi noahil “xon zamonlari”dan bahs yuritdi.

“O‘tkan kunlar” romani qamrab olgan voqea-hodisalar doirasi benihoya keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar badiiy talqin etiladi. Biroq ular orasida vatanparvarlik, millat dardi, inson qadri kabi masalalar alohida ajralib turadi. Asarning **bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek** hojilar shu yurt istiqloli, farovonligi, osoyishtaligi yo‘liga hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi. “O‘tkan kunlar” bamisoli ulkan va tiniq ko‘zgu, unda o‘zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlar, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasi keng ko‘lamda aniq-ravshan gavalantiriladi. Romandagi uchlik — oshiq, ma’shuqa va ag‘yor, bir qarashda, an’anaviy

ishq dostonlarini ham eslatadi. **Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbati, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo‘r mahorat bilan tasvir etiladi.** Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir “durri bebaho” — ishq-muhabbat tuyg‘usiga doir inja tafsilotlar kitobxonni hayajonga soladi; Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojiviy sahnalar kishini chuqur o‘yga toldiradi. Muallif oshiqlarning





ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni — Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko‘z oldimizda gavdalantiradi. Abdulla Qodiriy Otabek bilan Kumushning ishq tarixini yozar ekan, ayni damda o‘lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir degan fikrni bag‘oyat ustalik bilan asarning mohiyatiga singdiradi...

“O‘tkan kunlar”ni o‘qigan o‘quvchi haqiqatan ham go‘zal qahramonlar bilan yon-



ma-yon yuradi, ularning g'am-tashvishlariga sherik bo'ladi, boshiga kulfat tushsa xafalanadi, shodligida quvonadi, ayniqsa, kitobning oxirgi epizodlaridagi fojiali manzaralarni o'qib yig'laydi, ayriliqdan ko'ngli o'ksiydi, taqdirning imzosi qoshida lol qoladi.

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani "taqdir shamoli"ning tafsilotlari-yu tavsiflari va tasvirlari yo'lida dunyoga keldi. Zotan...

Agar "taqdir shamoli" bo'lmaganda Otabek Kumushga ro'baro' kelmas edi...

Agar "taqdir shamoli" yurmaganda, Otabek Kumushga uylanmas edi...

Agar "taqdir shamoli" yelmaganda, Marg'ilon bilan Toshkent orasidagi shirin va achchiq sarguzashtlar-u O'zbek oyimning orzu-havas yo'lidagi o'jarliklari yuz bermas edi...

Agar "taqdir shamoli" esmaganda, Kumush va Zaynab kundosh ham bo'lmas edi...

Agar “taqdir shamoli”...

Nazarimda, Abdulla Qodiriy romanlarining umrboqiylik asoslarini, eng avvalo, adib shaxsiyatidan, dunyoqarashini shakllantirgan zamindan, adabiyotdagi abadiy mavzularni maromiga yetkazib tasvirlashidan, soʻzning ruhiyatga taʼsiridan va shu singari koʻzga koʻrinib-koʻrinmay turgan hamda hisga taʼsir etib-etmay turgan qator unsurlardan izlash kerak.

Biz koʻp hollarda “Oʻtkan kunlar”ni mutolaa qilganda, nima uchun Otabek Margʻilon-dan uylanadi, nega ikki marta uylanadi, nima sababdan Kumush oʻldi, Zaynab jinni boʻldi, degan savollarni xayoldan oʻtkazamiz.

Aslida roman jiddiy kuzatilsa, adib oʻrni-oʻrni bilan barcha jumboqlarni taqdir hukmiga bogʻlab oʻtganligi yaqqol koʻrinadi. Abdulla Qodiriy qahramonlari tabiiy ravishda taqdiri azal hukmi ostida harakat etadilar. Baʼzi oʻrinlarda adib oʻz qalamining oʻjizligini tan olishi ham shundan boʻlsa, ajabmas.

Yozuvchi qahramonlarini sudramaydi, majburlamaydi, ular yakunga o'z tabiatlari mantig'iga ko'ra tabiiy boradilar.

“O'tkan kunlar” romanining ma'no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Unda turli insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olinadi. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin, el-yurtning saodatli istiqboli va birligi masalasi romanning asosiy pafosini tashkil etadi.

Romandagi har bir qahramonda joziba bor; ularning ko'ngli, ma'naviy qiyofasi ko'zga ko'rinib turadi; yuraklarining urishlari eshitiladi. Asosiy, ikkinchi darajali va, hatto, epizodik qahramonlarning fikrlari teran, mulohazalari hikmatlar bilan to'yingandir. Rahmat, Akram hoji, Oysha buvi, Oybodoq, Ali va boshqa qator epizodik obrazlar o'zining yorqin qiyofasi, latif so'zlari bilan esda qoladi.

Asar avvalidagi bir yig'inda majlis ahli Turkistonning o'sha paytdagi holatini tahlil qiladi. Ziyo shohichi: *"Bizning shu holga tushishimiz o'z fe'li-xuyimizdan"*, deydi. Otabek esa ijtimoiy tubanlikning sababini ittifoqsizlikda, o'zaro nizolarning avj olganida, *"buzg'unchi va nizochi unsurlar tomir yoyib, har zamon sodda xalqni halokat chuquriga qarab"* tortishida deb biladi. Abdulla Qodiriy XIX asr oxiridagi Turkistonda kechayotgan ahvoldagi "chuvalgan ipning uchini topib bergandek" bo'ladi. Darhaqiqat, xalqning obod va ozod turmushini dil-dildan istagan Abdulla Qodiriydek bir insonning ma'naviy-estetik dunyosiga ham bunday fikr-mulohazalar begona emas, albatta.

**Romanning asosiy qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt farovonligi va osoyishtaligi yo'lida hayotini,**

**jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi.**

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek hojini aynan hojiligi e‘tibori bilan yuksak bir maqomga ko‘tarib qo‘yganidir. Bu qahramon maishiy-ijtimoiy jihatdan aql-zakovati, fahm-farosati, go‘zal odobi, muomala-munosabati, qo‘yingki, barcha-barcha fazilatlari bilan ajralib turadi. Bu nuryuzli siymo tal‘atidan taralgan yog‘du butun roman borlig‘iga oydinlik bag‘ishlaydi.

Adib Yusufbek hoji zimmasiga katta yuk yuklaydi. U o‘zaro mahalliy ziddiyatlarning zararini yaxshi biladi, qipchoqni qirish ishini qoralaydi, aksincha, bir millatning ikki qavmini ularni “chin yovg‘a beriladigan kuch” uchun ittifoqchi sanaydi. Noo‘rin isyonga otlanayotgan olomonga qarata: “...Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘ris bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz

*qilib qipchoqni ko'rsangiz, men boshqa yovni har zamon o'z yaqinimga yetgan ko'raman", degan so'zlarni aytadi. Biroq hojining istagiga qarshi qirg'in bo'lib o'tadi. Buning ustiga-ustak, Otabek ham otasining bu ishda qo'li borligidan shubhalanib, hojining ko'ngliga ozor yetkazadi. Yusufbek hojining o'zini oqlab masalaning tub mohiyatini tushuntirgandan so'ng aytgan quyidagi so'zlari bu shaxsning chindan ham ulug'vorligini yaqqol ko'rsatadi. "Men ko'b umrimni shu yurtning tinchligi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qila olmadim. Ittifoqni ne el ekanini bilmagani, yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansabparast, dunyo-parast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi. Biz shu holda ketadigan, bir-birmizning tegimiz-*

ga suv qo'yadigan bo'lsak yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'yniga o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz. O'z naslini o'z qo'li bilan kofir qo'lig'a tutqin qilib topshirg'uvchi — biz ko'r va aqlsiz otalarg'a Xudoning la'nati albatta tushar, o'g'lim! Bobolarning muqaddas gaudasi madfun Turkistonimizni to'ng'uzxona qilishg'a hozirlang'an biz itlar Yaratguvchining qahriga albatta yo'liqarmiz!..." Ota va o'g'il gurungida aytilgan bu gaplar katta ijtimoiy qiymatga ega. Hojining bu masalalarda o'z qarashi, o'z gapibor. Shuning uchun uning o'tkir va haq gaplari Otabekni uyalib yerga qarashga majbur etadi.

Abdulla Qodiriy romanida o'zbekning sokin oilaviy hayot tarzini ham, kundosh kelinlar

orasidagi o‘zaro nizolar va ularning yechimini ham juda ishonarli, bag‘oyat mahorat bilan tasvirlaydi. Romandagi tasvirlarga ko‘ra, Yusufbek hoji agar ikki kelin o‘rtasida “so‘z chiqqanini goho eshitsa, ikkala kelinni o‘z oldiga chaqirib” nasihat qiladi. “Avvalo Kumushdan o‘pka qilib: “Oyim, har nima siz kattasiz, Zaynab yosh, kattadan kichikka shafqat lozim, mundog‘ yaxshi emas!” degan gaplarni aytadi. So‘ng Zaynabga nasihatlar qiladi; “keyin ikkisini duo qilib, bir-biriga salom” berdiradi. Qaynona-kelin munosabatlari ham Yusufbek hojidek dono-donishmand oila rahbari nazari-dan chetda qolmaydi. Romandagi juda tabiiy obrazlardan biri bo‘lgan O‘zbek oyim bilan Yusufbek hoji, Mirzakarim qutidor bilan Oftob oyim munosabatlari ham butun salobati, insoniy fazilatleri bilan o‘quvchi tasavvuriga muhrlanadi.



“O‘tkan kunlar” xayoliy va hayotiy omillar uyg‘unligida maydonga kelgan ulkan bir ma’naviyat qasridirki, uning ichkarisiga kirgan odam insoniyat abadiyatiga daxldor tushunchalarning badiiy talqiniga, eng nafis his-tuyg‘ularning betakror tasviriga, o‘zaro chambarchas bog‘langan ijtimoiy va individual holatlar zanjiriga duch keladi; aqli hayron qoladi.

Bilasizki, “O‘tkan kunlar”dan hayot nafasi ufurib turadi. Qahramonlar siz bilan bir havodan nafas oladi, ularning yurak urishlari eshitilgandek bo‘ladi: go‘yo Otabek bilan yonma-yon yurasiz, ziyofatlarida birga o‘tirasiz. “Siz o‘shami?” degan hayajonli savolni xotira devoriga muhrlab qo‘yasiz. Yuzlaridan nur yog‘ilib turgan Yusufbek hojining purhikmat o‘gitlaridan bahra olasiz. Kumushning achchiq qismatini ko‘rib, beixtiyor ko‘zlaringiz yoshlanadi. Zaynabga “bechora”, deysiz, “majnuna”,

deysiz. Xullas, asardagi salobat va mahobat, yozuvchining ichki maneralari va mahorati sizni o'ziga rom etadi. Negaki, romanda jon bor, tiriklik bor, unda "ikki eshik orasi"dagi umr mohiyati mujassam...

So'z vositasida obraz yaratish yuzasidan ezmalanib, biljirab o'tirishga zarurat yo'q. Aynan so'zning ta'siri bois Kumusho'lgan sahna-da ho'ng-ho'ng yig'laydi kitobxon. Aytmoqchi, bu epizodning o'zi yig'lab yozilgan. Demak, adibning titragan, ichikkan, o'ksigan yuragi shu sahifalarga ko'chgan. Badiiy ijoddagi bir qonuniyat shuki, mujmal tasavvurlar mujmal ifodalanadi; yozuvchisini kuldirmagan hajviya o'quvchisiga ham ta'sir ko'rsatmaydi; yig'lab yozilgan sahifalar yig'lab o'qiladi. Chinakam adibning estetik dunyosi, ko'rkam so'zi, san'at-korning pokiza ko'ngil manzaralari umrboqiy sahifalarda aks etadi. Xo'sh, xotirlaylik-chi, Abdulla Qodiriy Kumushni qanday so'zlar

bilan tasvirlagan edi? Majzub! Juda beg'ubor va begidir! Agar esingizda bo'lsa, romanning avvalidayoq Kumush ruhiyatida ham g'alati bir parishonlik kezadi. U ham Otabekka o'xshab allatavur bo'lib yuradi; o'zini g'alat sezadi.

Adib Kumushning o'sha holini juda go'zal, quyuq obrazli til bilan quyidagicha chizadi: "... uying to'riga soling'on atlas ko'rpa, par yosti quchog'ida sovuqdan erinibmi va yo boshqa bir sabab bilanmi, uyg'oq yotqan bir qizni ko'ramiz. Uning qora zulfi par yosti qning turlik tomonig'a tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jinggila kiprik ostidag'i timqora ko'zlari bir nuqtag'a tikilganda, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qaro kamon, o'tib ketgan nafis, qiyig' qoshlari chimirilganda, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuzi bir oz qizilliqg'a aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi...". Bu o'rinda so'zlar marjondek terilgani sezilib turibdi. Yoki

aynan ana shu qahramonning boshqa bir epizoddagi ruhiyati ifodasida ham yozuvchi bor badiiy mahoratini ishga soladi: “...Ariqning musaffo tiniq suvi yovoshg‘ina oqib kelar, Kumushbibining qarshisig‘a yetkanda go‘yoki, uning ta‘zimi uchun sekingina bir charx urib qo‘yar, o‘z ustida o‘ltirgan sohiraning sihriga musaxxar bo‘lg‘an kabi tag‘i bir kattaroq doirada aylangach, ohistag‘ina ko‘prik ostig‘a oqib ketar edi. Ariq suvining nihoyatsiz harakatini uzoq ko‘zdan kechirib o‘turg‘ach, qo‘l uzatib suvdan oldi va yuzini yuvdi. Uning yuzini o‘pib tushkan suv tomchilari bilan ariq harakatka kelib chayqaldi, go‘yoki suv ichida bir fitna yuz bergan edi... Nozik oyoqlar toldilar shekillik, sadaf kabi oq tishlarini bir-ikki qaytalab chaydi, ariq bo‘yini va uning suvlarini tashlab ketdi”. Bunda kelgan “sohira-ning sihriga musaxxar bo‘lg‘on” birikmasidagi “sihrun” o‘zagidan yasalgan ikki so‘zning

“bo‘ysundirilgan” ma‘nosidagi “musaxxar” ga ohangdoshligi ham, “yuzini o‘pib tushgan suv tomchilari” ifodasi ham, “oyoqlar toldilar shekillik”dagi ikkita “-lar” qo‘shimchasining hurmat va ko‘plik anglamidan o‘zgacharoq nafosati-yu “nozik” sifatlashi hamda “sadaf kabi oq tishlar” o‘xshatishi ham — barcha-barchasi benihoya go‘zal! Qodiriy sohir qalami ostidan chiqqan aksar toza qahramonlarning ich-u tashi jozibali, o‘zi suyukli, so‘zi ta‘sirli. Chunki adib so‘z so‘zlashda uzoq andishaga boradi; quruq bayon o‘rniga voqelikni, insonni tasvirlashni muhim sanaydi.

Mumtoz adabiyotshunoslikda kam so‘z bilan ko‘p ma‘nolar bayon etish san‘atiga “iyjoz” deyiladi. So‘zning iyjoz maqomi Abdulla Qodiriy nasri poetikasiga, qahramonlari nutqiga ham xos.

Otabekni ikkinchi marta uylantirish havasi-

da yurgan O'zbek oyim bir kuni Hasanaliga bilan gap talashib aytadiki: "*Sandek soqoli uzun, aqli qisqadan kengash so'rab o'lturg'an men ham ahmoq!*". O'zbek oyimning gapiga usta qilinganini qarangki, bu o'rinda xalq orasida ayollarga nisbatan aytib kelinadigan nisbiy ta'bir **Hasanaliga** moslanadi. Shokirbekning Otabekka evrilish sahnasi ostonasida Usta Alim: "...yomonning janozasidan yaxshining hikoyasi foydalik", deb some'likka hozirlanadi. Bunday nutqda "sen" — "men", "uzun" — "qisqa", "yaxshi" bilan "yomon", "janoza" bilan "hikoya" so'zlari zidlanadi. Yusufbek hoji bir yig'ilishda: "*Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi*", degan gaplari semantikasi qarshilidir. Yusufbek hojining o'z nafsiga nazari, malomati va e'tirofidagi soqolining oqarishi yoki ko'nglining qorayishi tasavvurni toza bir inson umrining yo'llari tomon yo'llaydi. Aslida vaziyat,

xarakterning kontrastli-qiyosli tasvirini roman-ning dastlabki sahifalarida, ya'ni karvonsaroyda Otabek tushgan hujra yoki Otabek bilan Homid xarakteri bayonidayoq ko'rinadi. Adib bu badiiy san'atdan romanda juda ko'p va o'rinli foydalanadi. Ba'zan kundoshlarning ma'naviyati, sajiyasi har jihatdan taqqoslanadi. O'z maqsadi yo'lida yangi qahramonlarni sahnaga olib chiqish jarayoni roman oxirlab qolganida ham davom etadi. Adib romanning "Xushro'ybibi va Zaynab" faslidagi: *"Xushro'y uzun bo'yli, qotmaroq va zarcha tanlik edi. Zaynab qisqa bo'y, go'shtdor va oq tanlik edi. Xushro'yning harakati yengil va lavzi tez edi, Zaynab loppo va o'nta so'zga arang bitta javob qaytaradig'an edi"*, degan opa-singillar tabiatining qiyosidan tasavvur to'lishadi.

"O'tkan kunlar"ni qayta o'qish jarayoni-da uning yangidan-yangi qirralari ochiladi. Bir o'qilganda e'tiborsiz o'tilgan epizodlarga

boshqa safar diqqat qaratiladi. Bu hol, tabiiyki, adibning obraz yaratish mahoratiga, inson qalbini chuqur anglashiga daxldor hodisadir. Zero, ko'rkam adabiyotdek san'at dunyosida poetik nutq muhim sanaladi; so'z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chiziladi; umummatnga "Umr — otilgan o'q ermish", "O'rinsiz chiransang, beling sinadi", "Egasini siylagan itiga suyak tashlar" singari xalqona hikmatlar singiriladi. Umuman olganda, xalq maqollari har qanday millat adabiy tilining fasohat va balog'atini ko'rsatadi. O'rnida qo'llangan maqol badiiy asarga ko'rk bag'ishlaydi. Bunday hol Abdulla Qodiriy asarlari tilida ko'p kuzatiladi. Xususan, "Yaxshi niyat — yorti mol", "Dardi yo'q — kessak, ishqiy yo'q — eshshak", "Osilsang ham baland dorg'a osil", "Sut bilan kirgan — jon bilan chiqar", "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r", "O'rgan-gan ko'ngil o'rtasa qo'yimas", "Qo'rqqoq oldin



musht ko'tarar" kabi maqol va iboralar ko'p uchraydi. Ulardan ayrimlari sarlavhaga ham olib chiqilgan.

Abdulla Qodiriyning asarlaridagi estetik go'zallik bevosita mahoratga, yozuvchining izlanishlari, ijodning mehnat-mashaqqati, faqat san'atkorgagina xos nazari bilan ham bog'liq. Zero, Julqunboyning o'z e'tirofiga ko'ra, u materiallarni, joylarni puxta o'rganadi; bu jarayonda eng mayda detallarga ham diqqat qaratadi. "O'tkan kunlar"ni yozishdan avval adib voqealar kechadigan joylarni ko'radi, turli ko'chalardan yuradi, qabristonda tunaydi va xon o'rdalarini sinchiklab o'rganadi. Masalan, Qo'qon o'rdasining qopisini shunday beradi: *"Ayniqsa, darbozaning ikki biqinidagi "o'girmagul" tarzi bilan ishlangan guldastalar, darboza ravoqidagi ganchdan qabartirilib yasalgan bo'rtma naqshlar, gullar hali o'zlarining nafosatlarini unchalik yo'qotmag'an*

*edilar*". Juda nafis soʻzlar bilan berilgan bunday tasvirlar adibning sinchkovligini anglatadi. Aniq tasavvur qilingan manzaralar tiniq tasvirlanadi; oʻz oʻrniga tushgan yorqin soʻz yolqini tafakkur puchmoqlarini yoritadi.

Abdulla Qodiriy romanlarini oʻzbek adabiy tilining zamonaviy koʻrinishda shakllanayotgan bir davrda yozdi. Adabiy tilning rutbasi, maqomi yuksalishida adibning xizmati katta boʻldi. Til millatni birlashtiruvchi qudratga ega qadriyatdir. Qodiriyshunos olimlar fikriga eʼtibor berilsa, Abdulla Qodiriy toshkentlik boʻla turib oʻz romanlarida mahalliy sheva unsurlarini umuman qoʻllamaydi. Hatto qahramonlarining nutqini individuallashtirishda ham boshqa badiiy vositalardan foydalanadi. Demak, adib shu zaylda bor mahorati bilan oʻzbek adabiy tilining boyligini, oʻzbek tilining keng imkoniyatlarini namoyish ham qiladi. Masalan: "Ul turgʻon joyida qoziqdek qoqilib qolgʻon

edi”, “Kechaning qarong‘ilig‘i ustiga mevalar-ning quyuq yaproqlari qo‘shilib, bu maydon, ayniqsa, Otabekning hozirgi ko‘ngliga yaqinlashib kelar edi” kabi ifodalarda “q” tovushi-ning takroridan, “Kishi Otabekni o‘tquzg‘ach, tokchadan sopol lagan bilan qovuqni olib chaqmoq surtdi. Sham‘ yoqildi. Bu kishi qirq yoshlar chamaliq, qonsiz yuzlik, siyrakkina soqollik, qo‘y ko‘z, ko‘b vaqt madrasa riyozatini chekkannamo, qotma, uzun bo‘ylik bir odam edi” kabi jumalardagi keng unli hamda “l”, “q” va “k” kabi undoshlar takroridan yuzaga kelgan tabiiy ohang, “Tana buzoqning turqi tuqg‘anig‘a tamg‘a” yoki “...oldidagi ovni ko‘rmay, uzoqdagi yovni ko‘radi”, “Xonning qo‘yini boqish uchun, qovoqlarni belga taqish uchun...”, “Endi ko‘rsam, miltiqning o‘qidek, pushti gulning to‘qidek kelinim bor ekan” kabi yuzlab xalqona iboralardagi saj, ritm va latiflik adib asarlarining umumpafosiga, qahramonlari

nutqiga joziba baxsh etadi. Bir o'rinda O'f-tob oyimning egachisini: "Yoshi ellidan oshqan, kulgusi ichiga to'lub-toshqan bir xotun..." tarzidagi qofiya bilan tavsiflaydi. Adib o'zbek tilining naqadar boy imkoniyatlarga egaligini asarlari bilan isbotladi. Qolaversa, ma'rifatli bir ziyoli sifatida o'zbekning so'zi uchun, adabiy tilning istiqboli uchun qayg'urdi. Bu chin haqiqatni biz har doim esda tutmog'imiz lozim...

**Rivoyat:** Nabira bobosidan: "Bu hayot nima?", deb so'raydi. Bobosi: "Azon ila namoz orasidir", deydi. "Bu nima deganingiz, bobojon? Umr shu qadar qisqami?" "Ha, shu qadar qisqa, ammo bu azon va namoz nima ekanini bilasanmi, bolam?"

Albatta, bolakay uning ma'nosini bilmas edi.

"Azon, bu — namozsiz azondir, ya'ni odam tug'ilgan payti qulog'iga azon aytiladi, ammo namoz o'qilmaydi.

Namoz, bu — azonsiz namozdir, ya'ni

inson o'lganda janoza namozi o'qiladi, ammo azon aytilmaydi. Men shuni nazarda tutdim, toychog'im!"

Rivoyatning mazmuni shunday va negadir menda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"i, cheksiz zamon qarshisida bir necha soniyaga o'xshagan inson umrining suvrati-ni abadiylashtirgan roman xronotopik jihat-dan shu rivoyat ichiga joylangandek taassurot qoldiradi.

"1264-inchi hijriya, dalv oyining 17-nchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...". Roman shunday boshlanadi. Azon — roman taval-ludi; shaytonlarni quvlash marosimi, deya tushundik. Azon — birinchi eshik ostona-si. Zotan, boboning nabiraga bergan o'gitiga ko'ra, hayot, bu — nihoyatda qisqa, azon va namoz oralig'idir.

Oraliq masofa cheksizlikka nisbatan bir lahza, bir lahzaga nisbatan cheksizdir. Bu oraliqda inson umri, Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, O'zbek oyim va hokazo va hokazo qahramonlar umrining mohiyati mujassam. Zotan, bu oraliqda baxt va baxtsizlik, visol va ayriliq, quvonch va fojia, g'am-tashvish va surur yonma-yondir.

“O'tkan kunlar”ning ilk sahifasidan azon ovozi eshitilsa, oxirida Kumushning o'lim to'shagida yotgan holatining, azonsiz namoz — janozaga “Toshkandning har bir mahallasidan deyarlik kishilar” qatnashgani bayon qilinadi. Shuningdek, roman “Xotima”sida Otabekning jangda, “o'rus bilan to'qunishma”da qahramonona urushib, shahid bo'lgani haqida xabar beriladi. Otabek shahidlar silkiga tiziladi.

“Yusufbek hoji xatmi Qur'on qilib yurtka osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi”. Roman shu jumlar bilan tugallanadi.



“O‘tkan kunlar”da sir bor, joziba bor, ohanrabo bor. Agar kitobxon bu kabi sifatlarining hamma-hammasini to‘la-to‘kis anglab olsa yoki adabiyotshunoslar kashf qilib qo‘yishsa, romanning qiziq joyi qolmaydi; roman umri tugab qoladi. Bu romanni o‘qigan har kim o‘z ta‘biga mos ma‘naviy ozuqa oladi. Ko‘p narsani anglaydi, tushunadi. Ammo romanda yana hali anglanmagan, tushunilmagan sirli, yashirin nuqtalar mavjudligicha qolaveradi.

Abdulla Qodiriy ijodiy merosidan, xususan, “O‘tkan kunlar” romanidan bahramand bo‘lish — bu doimo davom etadigan, avlodlar nazdida yangilanib turadigan sog‘inchli, ayni damda, o‘tmishga aylanmaydigan adabiy va abadiy qadriyatlar sirasiga kiradi.

“O‘tkan kunlar” romani orqali, haqiqatan ham, o‘quvchi adibning o‘zi aytmoqchi, “tur-mushni, tarixni, siyosatni, odobni, tilni” o‘rganib oladi.

**“Mehrobdan chayon” romani<sup>4</sup>.** Abdulla Qodiriy ikkinchi yirik asari “Mehrobdan chayon”ni 1928-yil fevralida yozib tugatdi. Roman 1929-yili Samarqandda bosilib chiqdi. Asarda xon zamonidagi xalqning hayoti, saroydagi kirdikorlar bilan birga muhabbatlik ikki yosh qalb egasi — Anvar va Ra’nolar ishqining ziddiyatli visol tarixini g’oyatda ta’sirchan tasvirlaydi. Garchi bu roman mavzui ham XIX asr hodisalaridan keyingi “xon zamonlari”dan olingan, Turkiston



<sup>4</sup> Romanni tushuntirishda professor Umarali Normatovning talqinlaridan ham foydalanildi (Qodiriy bog‘i. — Toshkent: Yozuvchi, 1995.).



hukmdorlarining keyingi vakili Xudoyorxon davridagi o'zboshimchaliklarni ko'rsatishga qaratilgan bo'lsa-da, unda roman yozilgan davr ruhi kuchli. Asarni "Mehrobdan chayon" deb atash, ziyoli ulamolardan qahramon qilib tanlashdan murod muqaddas dargoh-sajdagohdan chiqqan, o'sha dargohga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, hasadgo'y, e'tiqodsiz kishilarga ishoradir.



Romanda Anvar bilan Ra'noning sevgi sarguzashti, qalb nazokati shoirona tarannum etilgan. Maktabdor Solih maxdumning realistik obrazi adabiyotshunoslikda

yozuvchining jiddiy yutug'i, kashfiyoti sifatida e'tirof qilingan.

Asardagi Anvar bilan Ra'no obrazlari bir qarashda romantik qahramonlarday taassurot qoldiradi. Barkamollik, aql-zakovat, do'stga, sevgiga sadoqat, erk, adolat yo'lidagi shijoat bobida ular afsona, doston



qahramonlarini eslatadilar. Ishqiy mulohazalar bobida bu ikki yosh juda erkin, oralaridagi gap-so'zlar bir qadar kitobiy, shoirona... Masalaga sinchiklab qaralsa, Anvar va Ra'nodagi favqulodda kitobiy tuyulgan xislatlar, ularning "g'ayritabiyy" xatti-harakatlari mantiqan va psixologik jihatdan asoslangan. Ular maktab ko'rgan, yaxshi tarbiya va chuqur bilim olgan, Sharqning yuksak madaniyati, ezgulik g'oyalari o'zlari uchun dastur, asosiy maqsad qilib



olgan odamlardir. Anvar bilan Ra'noning she'riyatga ixlosi baland ekani, har ikkisida ham she'riy zavq va shoirlilik iste'dodlari borligi, xususan, Ra'no yaxshigina shoira ekani nazarda tu-

tilsa, ular orasidagi muomala-munosabatlarning hayotiy va tabiiyligi o'z-o'zidan anglashiladi. Buning ustiga aql-zakovat, iste'dod bobida zukko Ra'no hali bolalikni to'la tark etgani yo'q, u ko'pincha kichik ukalari bilan ovungan, o'ynab yurgan holda ko'rsatiladi. Anvarga duch kelganda u birdan ulg'ayib qolgandek, bolalarcha sho'xlik bilan zukkolik qo'shib uning timsolida ajib bir nafosat namoyon bo'ladi...

Darhaqiqat, yozuvchining “Mehrobdan chayon”dagi realistik mahorati Solih maxdum obrazida juda yorqin ko‘rinadi. Roman haqida ko‘p tanqidiy fikrlar aytgan Oybek bu obraz tasviriga kelganda adibning mahoratiga tan beradi, maxdumning “to‘la-to‘kis xarakter” tipiklik bilan individuallikni eng muvaffaqiyatli birlashtirgan odam obrazi, “Maxdum belgili bir guruhning “xislatlari”ni o‘zida porloq qabariq gavdalantirgan yig‘indi realistik obrazdir”, u “asardagi hamma personajlar orasida eng jonli, eng yorqin, eng tipik figura” deb aytadi.

Romanda muallif yengil hazil-mutoyiba, kulgi-yumor, piching, kinoya-kesatiq, hajv orqali Maxdum tabiatiga xos “maqtab bo‘lmaydigan” xususiyatlarni batafsil ko‘rsatadi. Bunday xususiyatlarning ichki va tashqi ijtimoiy ildizlarini ham ochadi. Ayni paytda maxdumning “hamma nuqsonlarni yuvib ketarlik” fazilatini ham ta’kidlaydi; “nima

bo'lganda ham maxdumning o'z zamonasining eng oldingi domlalaridan, Qo'qon aksariyatining savodxon bo'lishlariga sababchi ustozlardan, hatto ulug' xizmatlarga kishi yetishtirib beruvchi nodir muallimlardan" ekanini aytadi. Maxdum shaxsiyatiga xos har ikki jihatning tasdig'i uchun asardan istagancha dalil-isbot topish mumkin. Birgina misol, Ra'noga xon tomonidan sovchilar kelgan epizod — maxdum tabiatidagi, ruhiyatidagi ziddiyatni juda ham yorqin namoyon etadigan lavha. Maxdum bu yangilikdan dovdaraydi, miyasi shishadi, ikkilanadi, "xonga padari aruslik" masalasi uni o'zga toldiradi. Agar boshqa bir no'noqroq qalamkash bo'lganida ehtimol "xasis", "tama'gir" otani hech qanaqa ikkilanishsiz, qiynalishsiz darhol bu "ulug' marhamat" oldida Anvardan yuz o'girib xon tomonga o'tkazib qo'ya qolgan bo'lardi. Roman muallifi ixcham tarzda bo'lsa-da maxdum ruhiyatidagi o'sha tobdagi

murakkab, ziddiyatli jarayonlarni bu odamdagi qiynalishlarni, ko'nglidagi g'ashlik, chigallikni, xon tomoniga og'ish sabablarini — ruhiy asoslarini mohirona ifoda etadi. Maxdum ruhiyatidagi shu singari ziddiyatli jarayonlar ifodasi bilan tanishgan kitobxon, garchi u tutgan yo'lni oqlamasa ham, bu odam holatini, o'sha tobda unga ham oson emasligini sezib turadi; bu tama'gir soddadil qariya xayollar og'ushida ikki yosh baxtiga zomin bo'layotganini ko'rib afsuslanadi.

Adib qahramonlarining tashqi qiyofasi tasviri uchun ham eng esda qolarli o'xshatma so'zlar va so'z birikmalaridan foydalanadi. Suyukli qahramonlari tashqi ko'rinishi tasvirida adib so'zlarni marjondek ipga tizadi. Adibning "nafrati"ga duchor bo'lgan "Mehrobdan chayon"dagi Abdurahmon domla portretini chizishda ham mahoratini namoyon etadi. Shunga o'xshash romandagi Solih maxdum

tabiatining o'ziga xosligi bayonida u birov bilan so'zlashganda, "ayniqsa, bir narsadan taajjublanganda siyrak va lekin to'g'ri, baquvvat o'skan soqolini tutamlab o'ng ko'zini biroz qisib" qarashi va o'z nutqida "habba" deb qo'yishi ham ko'pchilik o'quvchilarga ma'lum gap, albatta. "Domlaning bu "habba"si nima ma'noda qo'llanilar, o'zidan boshqa hech kim bilmaganidek, undan bu to'g'rida izoh ham so'ramag'an edilar. Har holda "habba — ha, balli" yoki "ha, barakalla" bo'lsa kerak. Chunki ul bir narsadan xursand va rozi bo'lg'anda aksar "habba" deb yuboradir". Har qanday vaziyatda ham shu bitta "habba" so'zining assotsiatsiyasidan o'quvchi tasavvurida Solih maxdumning qiyofasi aniq gavdalanadi. Badiiy ijodda topilgan va o'rnida ishlatilgan bitta noyob so'zning quvvati ham yozuvchi mahoratidan darak beradi.

"Mehrobdan chayon" ning "Qiziqqlar" fasli-

da o'tmishdagi o'ziga xos xalq teatr san'atining namunasini tasvirlaydi. Sahnaga olib chiqilgan qiziqchilarning qochirim va askiyalari vositasida o'zbek tilidagi so'zlarning ko'pma'no-lilik jihatlarini namoyish etadi. Ba'zan bitta so'zning ichki yoki ko'chki ma'nosidan kulgi paydo bo'ladi.

Yozuvchi ba'zan qahramonlari tabiatini, xususan, haramdagi qizlar fojiasini hazil-mu-toyiba, o'yin-kulgi orqali ochib beradi...

Abdulla Qodiriy romandagi Xudoyorxon obrazidan olabo'ji yasashni emas, balki hukm-dor inson siymosini, hayot ziddiyatlari ichra o'z holicha ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. E'tibor berilsa, Abdulla Qo-diriy "Mehrobdan chayon"dagi Xudoyorxon obraziga aynan tilga e'tibor masalasida milliy tuyg'ularni singdiradi: *"Xudoyor muhr bosish asnosi yozilgan yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshilarning eshitilmagan arab va*



fors soʻzlari orqaliq toʻqugʻan yarimturkiy jumllariga aksar vaqt tushunmas: “Enalaringʻ arapqa tekkanma?” deb mirzo, muf-tilarni koyir edi. Ammo Anvarning yozgʻan har bir jumlasini musiqiy kabi rohatlanib, tushunib tinglar va “shu bala barilaringʻdan ham oʻqugʻanraq chiqar!” deb, boshqa mirzolarning yuragiga oʻt yoqar edi”. Xudoyorxonning “turkiy jumllar”ga alohida qaragani, Anvarning inshosini maqtagani, bu — muhim gap. Yana bir zarur gap shuki, adib ayni epizoddagi Xudoyorxon nutqiga xuddi tilshunos kabi roman hoshiyasida shunday bir izohni yozadi: “Xudoyor qipchoqlar ichida oʻskani uchun tili oʻzbekchadir. Enalaring soʻzidagi “ng” harfini “ngʻ” ravishida qalin soʻzlaydir. Bu kungi Fargʻona oʻzbeklarida ham (ayniqsa qishloqilarda) yumshoq “ng” oʻrnida qalin “ngʻ” ishlatish koʻb eshitiladir. Hozirgi isloh qilingʻan harfimizda bu qalin

“ng”ning maxsus shakli yo‘qdir. Yozg‘anda (n-g‘) harflaridan bir tovush yasalsa ham, biroq o‘qug‘anda har kim buni o‘z maxrajidan chiqarolmas, yanglish o‘qur. Bu qalin “ng” o‘zbekcha bir necha so‘zdagina ishlatilmay ko‘b (ellilab) so‘zda iste‘mol qiling‘ani uchun manimcha alohida bir shakl qabul qilish ehtiyoji his etiladir. Masalan mashhurlari: zang‘, pang‘, lang‘, darang‘, qalang‘i-qasang‘i, dang‘, to‘ng‘uz, shang‘i, to‘ng‘illamoq, to‘ng‘, to‘ng‘uch va ang‘iz, ting‘ boshqalar... Eski “ning” “ng” ravishida isloh qilingan. Bu yo‘g‘on “ng‘” ham “g‘” harfining ustiga uch nuqta qo‘yulib yozilsa-mikin... (mual.)”.

Yangilanayotgan adabiy til ustida bahslar, turlicha qarashlar aytilayotgan bir muhitda adibning milliy til taqdiri ustida bunday kuyunishlarini chin ziyoliga xos fazilat sanalishi lozim, albatta.

Hech shubhasiz, Abdulla Qodiriyning adabiy merosi o'zbek adabiy tilining tarixida alohida bosqich sifatida qaralishga munosibdir. Chunki adibning qo'llagan so'zlari, xalq ichidan tanlab, topib olgan ta'birlari, xalqona badiiy tasvir vositalari — bularning bari hozirga qadar har kim uchun tiniq fikr ifodasiga xizmat qilib keladi.

Abdulla Qodiriyning ulkan hajmdagi romanlaridan tortib, oddiygina bir nechta qatordan iborat "bildirishnoma"larigacha — barcha-barchasida tesha tegmagan ta'birlar, o'ziga xos poetik nutqning betakror namunalarini ko'rinadi.

Darhaqiqat, oradan sal kam bir asr o'tgan bo'lsa-da, bugun ham Abdulla Qodiriyning o'zbek adabiy til taraqqiyotiga qo'shgan beqiyos xizmatlari yurak-yurakdan e'tirof etishga, adibning mahorati, qalamiga tahsin aytishga majburmiz. Julqunboy ikki asr va ikki turli

tuzum chegarasida yashadi. Umri tugab bo'rayotgan "xon zamonlari", "musulmonobod" bo'lgan o'sha zamon odamlari turmushi bilan yangilanayotgan, zamonaviylashayotgan Turkiston ahli hayotini qiyosladi. Shu bois uning asarlari tilida mumtoz nasr bilan yangi o'zbek adabiy tilining uyg'unligi aniq kuzatiladi. Eng muhimi, bu poetik til Abdulla Qodiriy asarlariga, xususan, moziydan so'z ochgan romanlari mohiyatiga juda mos keladi. Sun'iylik sezilmaydi. Lozim o'rinlarda yuqori tabaqaga mansub obrazlar tili yoki farmonlari matnini ham individuallashtiradi.

Ba'zan Abdulla Qodiriy o'z asarlarida mumtoz nasrga xos saj' san'atidan ham foydalanadi. Deylik, o'rdalik bir samovarchi devonani so'zlatib: "...choyxonada sakkiz yigit, o'rtasida bitta chigit; kakir-kukir etar chilim, katta-kichik unga yelim! Bu na balo, bu na qazo?.." desa, boshqa bir o'rinda — "Salom-

noma”da boylarga qarata: “Maskov borib ke-  
libon, minglab foyda qilibon, haftada gap yeyi-  
bon, tomga karnay qo’yibon; xalq qayg’usin  
yemayin, maktab ochay demayin; ellik-oltmish  
qo’y bergan, sakkiz kunlab to’y bergan —  
Turkiston savdogarlariga salo-o-om!..” deb  
yozadi. Bunda savdogarlar xarakteri o‘zaro  
zidlashib yig‘ilgan so‘zlar vositasida ochiladi.

Abdulla Qodiriy fikr ifodasining qisqa va  
aniqligini, kam so‘z bilan ko‘p ma’no berish  
yo‘sinini qadrlab, yozishda ortiqcha so‘z va jum-  
larni qisqartirishdan saboq beradi; yozganini  
odamning yolg‘iz o‘zigina tushunib, boshqa-  
ning anglay olmasligi adibga aslo ma’qul kel-  
maydi. Shu bois “Yozg‘uvchilarimizga” nom-  
li maqolasida: *“So‘z so‘ylashda va ulardan  
jumla tuzishda uzoq andisha kerak, yozg‘uv-  
chining o‘zigina tushunib, boshqalarning tu-  
shunmasligi katta ayb. Asli yozg‘uvchilik,  
aytmakchi bo‘lg‘an fikrni hammaga barobar*

*onglata bilishda, orag'a onglashilmovchiliq solmasliqdadir*", deb ta'kidlaydi. Asar matnidagi har bir so'zga diqqat berib, undan "biron so'zni chiqarib tashlash yoki biron so'zni qo'shish" masalasida ham qat'iy turadi. Bular eskirmaydigan, ibratga loyiq haqiqatlardir.

Abdulla Qodiriy asarlari o'quvchilar qo'liga tekkandan buyon o'ksik qalblarga malham bo'ldi; millatning badiiy didini, go'zallikka munosabatini shakllantirishda ulkan xizmatlar qildi. Bu inkor etib bo'lmaydigan haqiqatdir.

Adolat, haqiqat va jasorat tushunchalari Abdulla Qodiriyning shaxsiy hayoti va ijodiy biografiyasida o'zaro uyg'unlashib, yuksak bir ma'naviy maqomlarga ko'tariladi. Natijada, adibning ibratli so'zlari amaliy-ijodiy faoliyatiga naqadar mos kelishi namoyon bo'ldi. Ijodkor asarlari, xotirasining umrboqiyligi uchun bunday yuksak rutba va uyg'unlik juda ham muhimdir.

Yozuvchi mavjud voqelikni, ijtimoiy hayotdagi hodisalarni badiiy talqin etar ekan, o'z g'oyaviy maqsadini anglatish, asar markazida turgan asosiy qahramonlari surat va siyratini namoyish etish uchun turli adabiy usullarni ishga soladi. Ba'zida bosh qahramonni so'zlatib, o'zini ko'rsatadi, ba'zan esa uni butun vujudidan kirlik yog'ilib turgan kimsalarga yoki ochiqko'ngil, soddadil insonlarga yo'liqtiradi. To'qnashuvlar, mubohasalar, munozaralar, samimiy dilgir suhbatlar va yoki lirik kechinmalar orqali voqealar rivoji yechimga qarab siljiyveradi, qahramonlar dunyosi oydinlashaveradi.

Shu ma'noda Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" da Anvarning ma'naviy kamolotini ko'rsatishda Solih maxdum, Abdurahmon domla, Safar bo'zchi kabi turli toifadagi obrazlardan unumli foydalandi.

"Mehrobdan chayon" o'zbek adabiyoti tarixidagi eng mashhur va majzub romanlar-

dan biridir. Abdulla Qodiriy ma'naviyatidan sizib chiqqan bu totli chashma uzoq zamonlardan buyon tashna qalblarga orom bag'ishlab keladi. Horigan ruhlarga yengillik, g'amgin ko'ngillarga surur va mahzun dillarga zavq ulashadi. Romanni o'qiganda adib mehri bilan yo'g'rilgan Anvar, Ra'no, Nigoroyim va Safar bo'zchilar, qahriga uchragan Abdurahmonlar, taraddudlari og'ushida qolgan Solih maxdumlar va, nihoyat, mo'tadil tasvirli Xudoyorxonlar siymosi takror va takror ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi.

Abdulla Qodiriy asarlarini oddiy o'quvchi sifatida o'qishim bilan adabiyotshunos sifatida o'qishim orasida katta farq yo'q. Adib asarlarining ham o'quvchisi, ham tadqiqotchisiman. O'qishdan mehr uyg'onadi; mehrdan hayrat, zavq-shavq, fikr-mulohaza tug'iladi. Olim uchun shunday bosqichlar ilhom manbasi sanaladi. To'g'risi, yuragim ezgulik, shod-



lik, hayrat, zavq-shavq va boshqa go'zal his-tuyg'ular bilan oshno tutinishini istasa, ko'p hollarda Qodiriy asarlarini qo'lga olaman. Shu majburiyatsiz, ixtiyoriy o'qish asnosida yurakni jiz ettiradigan, ehtimol boshqalarga ham qiziq tuyuladigan va, eng muhimi, hozirgacha qodiriyshunoslar e'tibor qaratmagan nuqtalarga ro'baro' kelaman. Shunda kitob sahifalarida belgilar, chiziqlar, ishoralar, qisqa qaydlar paydo bo'ladi; ko'chirmaga munosib o'rinlar mo'ljalga olinadi.

“O'tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon”dek cho'ng san'at namunalarini sinchiklab o'qigan kishi ularni abadiyat koshonasiga olib kirgan jihatlarga qayta-qayta duch kelaveradi. Hayratlanadi. Roman matnida ko'ngilni o'ziga ipsiz bog'laydigan ajoyib joziba, dillarga zavq beradigan lirik ohang bor. Albatta, ushbu nasriy nazm tabiatiga xos fazilatlarni anglash uchun oddiy tovushlar uyg'unligidan tortib,

muayyan soʻz, soʻz birikmasi, gap va jumlar, badiiy nutq, umuman, matn poetikasiga daxldor unsurlar birma-bir kuzatilishi kerak.

Xullas, “Oʻtkan kunlar” ham, “Mehrobdan chayon” ham oʻquvchilar tomonidan sevib oʻqilgan, oʻqilayotgan va kelgusida ham oʻqiladigan asarlar sirasiga kiradi. “Oʻtkan kunlar” ham, “Mehrobdan chayon” ham adabiyotshunos olimlar tomonidan har doim oʻrganilgan, oʻrganilayotgan va oʻrganiladigan romanlardir.

### Satirik ijodi

Abdulla Qodiriy oʻzining hajviya, felyeton va kichik hangomalarini shartli imzolar bilan eʼlon qildi. Uning **Julqunboy, Mulla Julqunboy, Kalvak maxzum, Toshpoʻlat tajang, Dumbul, Ovsar, Shilgʻay** kabi imzolari mashhur. Bunday maxfiy taxalluslarni qoʻllash faqat Qodiriy yoki “Mushtum” chilargina emas, umuman, 20-yillar adabiy muhitiga xos xususiyatdir.

Hayotning hajviy talqini, ijtimoiy turmushdagi nuqson-kamchiliklarni satira va yumor bilan tanqid etish 20-30-yillarda ayovsiz ko'rish olgan edi. Goh to'qima obrazlar, ba'zan aniq tarixiy shaxslarni tilga olgan holda hajviy asarlar yozilardi. Felyeton janri juda faol edi. Xususan, bu yo'nalishda "Turkiston" gazetasi, "Mushtum" jurnalida yuzlab chiqishlar qilgan, "kuldirib yig'latadigan, yig'latib kuldiradigan" **Julqunboy 1924-yildayoq "felyetonlar qi-rol" nomini oldi.**

Julqunboy XX asr o'zbek kulgi adabiyotining maktabdorlaridan biri ekanini yaxshi bilasiz. Julqunboy miriqib kulgan va kuldirgan edi. Ba'zan yig'latib kuldirdi va ba'zida kuldirib yig'latdi.

Hozirga qadar adabiyot maydonida urchib yotgan bir xil "hajviya"lar borki, kuldirmak uchun yoziladi. Biroq kulib bo'lmaydi, o'qigan odam qitiqlasang ham va, hatto, aqcha to'lasang-da kulmaydi.

Abdulla Qodiriy bilan "Mushtum" da bir necha yil yonma-yon xizmat qilgan **Mo'minjon Muhammadjon o'g'li (Toshqin)**: "Abdulla Qodiriy har narsaga tanqidiy nazar bilan qarar, eski xurofot narsalarga g'oyatda dushman edi. Uning har bir so'zidan hajviy ifoda anqib turar edi.

U g'oyatda jasoratli, o'z so'zida ustuvor va barqaror, o'tkir satirik va g'oyatda zakovatli edi..."<sup>5</sup>, deb xotirlaydi adibni.

Zotan, Julqunboy o'tkir satirik qalami ortidan g'arazgo'y safdoshlarining tuhmat-u bo'htonlariga uchrab azoblangan paytlari ham bo'lgan. Abdulla Qodiriyning shartli imzolar ostida e'lon etilgan hajviy asarlarida adib shaxsini topish, g'oyayi a'molini anglash oson emas. Adibning hajviyalari esa, ayni shu xususiyati bilan go'zal. Chunki ularda ma'no qatlamlari

<sup>5</sup> Qodiriy H. Otam haqida. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. — B. 35.

qatma-qat. Har soʻz, har jumla zamiridagi pi-ching, kinoya va yo “chirt-pirt”dan tuyquq qandaydir haqiqatni ilgʻash, komik holat bayonidan yigʻlash yoki ochilib-sochilib, yurak-yurakdan kulish mumkindir. Abdulla Qodiriy hajviya, felyeton va hangomalarida ayovsiz tanqid, aybliga yuzing-koʻzing demay tortilgan tarsaki, “soʻz oʻnqovi” kelganda chapanicha doʻq-poʻpisa, “ovsarona, daliyona” — tajohuli orifona soʻz aytish sanʼati bor.

Abdulla Qodiriyning satirik asarlari xususida gap ketsa, avvalo, “Kalvak maxzum...” va “Toshpoʻlat tajang...” tilga olinadi. Adabiyotshunosligimiz, xususan, qodiriyshunoslik tarixida bu asarlarning turli saviyadagi talqinlari bor. Taʼkidlash joizki, Qodiriyning satirik asarlarini xalq kulgisidan alohida olib tushuntirish aslo mumkin emas. Zotan, dunyodagi mashhur “Kichik Saxes” (Gofman), “Gargantyua va Pantagryuel” (F.Rable),

“Revizor” (M.Gogol) singari asarlar bevosita xalq kulgisi bilan bog‘liq.

Kulgi — xalq ijodi. Yozuvchi xalqdan oladi va xalqqa beradi. Abdulla Qodiriy Kalvak maxzum va Toshpo‘lat tajangni ham, Solih maxdum va O‘zbek oyimni ham o‘z xalqi ichidan topdi. Xarakterlarini umumlashtirdi, sayqal berdi, badiiy-poetik libos kiydirdi. Uning turli suhbatlarda, davralarda gap “o‘g‘irlab” o‘tirishining boisi ham shudir.

Adibning “Kalvak maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lat tajang nima deydir?” hajviyalarining mavjud talqinlarida, ularning g‘oyaviy-badiiy tahlillarida biryozlamaliklar uchraydi. To‘g‘risi, bu ikki g‘aroyib kulgi asarida muallif tajohili orifona usullarini qo‘llaydi. Badiiy asar mohiyatini muallif fikriga muvofiq ravishda talqin etishda eng birinchi manba matndir. Matn bir tomonda qolib, davr talabi, hukmron mafkura qolipi yoki

talqinchi tasavvurida shakllanib qolgan siyqa mezonlar bilan asarga yondashuv noto'g'ri; bunday hol nisbatan biryoqlama xulosa, tasavvurlarga olib keladi. Talqindagi yondashuv usulini to'g'ri qo'llash uchun yozuvchi dunyoqarashidagi ustuvor mezonlarni, shuningdek, muallifning ikkinchi bir asarida talqin etilayotgan asariga bo'lgan munosabatini ham inobatga olmoq lozim.

Adibning **“Kalvak maxzumning xotira daftaridan”** asari ikki qirrali keskir pichoqni eslatadi. Yozuvchi, bir tomondan, xurofot ildizlarini kesadi, ikkinchi tomondan, dinsiz jamiyat sari yuz tutgan kishilar dunyosiga Kalvak maxzumning ko'zi orqali nazar tashlaydi.

Julqunboyning nisbatan hajman kichik hajviya va hangomalarida kulgining piching, kinyoya, kesatiq yo'sinida yuzaga kelganini kuza-tish mumkin. Ammo uning Kalvak maxzum va

Toshpo'lat tajangi "xarakter kulgisi"ga yorqin misoldir. Har ikki qahramon ham o'z holini o'zi bayon etadi. Ulardagi kulgi xalq ichidan olingan iboralar, ko'cha-ko'yning gap-so'zlari, ba'zan so'kinch, xitob va undov vositasida, ba'zan bevosita ish-fe'ldan — real voqelikka nomuvofiq holatlar bayonidan yuzaga keladi.

Abdulla Qodiriy — o'z satiralari bilan maktab yaratgan ijodkor. Ijodga havasmandlar ayni dargohda ta'lim olishlari mumkin. Shu o'rinda iste'dodli adib Murod Muhammad Do'stning e'tiroflarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "Qodiriyni biz, yoshlar o'rganishimiz zarur ikkinchi fazilati — kulgi. Unda kulgining beozor jilmayishidan tortib, o'ldiradigan zaharxandaga qadar, hamma turidan topiladi. Qodiriy satirasi juda kuchli. Parodiya uslubini qo'llashda Rable yoki Sviftdan qolishmaydi. Qodiriy satirasida yana bir nuqta borki, bu



— xolislik. Go‘yo yozuvchi befarqday tuyuladi, qahramonning o‘zi gapiradi, to‘yib-to‘yib so‘ziga mast bo‘lib gapiradi...”<sup>6</sup>.

Abdulla Qodiriy psixologiyasida, tabiatida voqelikka tanqidiy munosabat bildirish kuchli. Voqelikni, xoh u zamonaviy, xoh tarixiy mazmunda bo‘lsin — qat‘i nazar, aksar holatlarida hajviy-badiiy ruhda talqin etishi shundan. Adib ijodiga xos bu xususiyatlar uning mayda hangomalaridan tortib eng yirik hajviyalari mohiyatida, shuningdek, yirik jiddiy tarixiy romanlarida ham uchraydi.

### **Munosabat**

Badiiy asar mukammal bo‘lsa, unda boqiy so‘z egasining pokiza tuyg‘ulari samimiy tarannum etilsa, nafosatga tashna ilm-ma‘rifat ahli unga har vaqt qayta murojaat qilaveradi. Abdulla Qodiriyning adabiy merosi shunday

<sup>6</sup> Murod Muhammad Do‘st. Ibrat. Sharq yulduzi. 1984-yil. 4-son.

murojaat va munosabatga munosib durdona.

Mana bir necha o'n yildirki, qodiriyshunos olimlar adib asarlari, xususan, ikki romani yuzasidan juda qimmatli adabiy talqinlar va tanqidlarni yozishdi. Bir tomondan qaralsa, romanlar hajmidan bir necha bor kattalashib ketgan ilmiy talqinlarda go'yo hamma mulohaza aytilib bo'lingandek ko'rinadi. Biroq "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon"ning hayotiyligi, badiiy jozibasi bu romanlarni nafaqat yillar va asrlar sinovidan, balki turli noo'rin tanqidlar suronidan ham eson-omon olib chiqaveradi. Shu sabab ularga qayta murojaat uchun mavzular topiladi.

Ta'kidlash kerakki, Abdulla Qodiriy yozgan asarlarga o'z vaqtida Vadud Mahmud, Abdurahmon Sa'diy, Ayn, Miyonbuzruk Solihov kabi munaqqidlar matbuotda turli yo'sinda fikr bildirdi. "O'tkan kunlar" romani

tanqidiga bag'ishlangan Sotti Husaynning alohida risolasi bosildi. Oybek "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" nomli maxsus tadqiqot yozdi...

1935-yili 10-martda Abdulla Qodiriy "Yosh leninchi" gazetasining adabiy to'garagida yosh yozuvchilar bilan uchrashadi va u o'z ijodiy tajribasidan so'zlab, shunday deydi: "Masalan, *"O'tkan kunlar"*ni yozish chog'ida *Marg'ilonga borganimda, bir ko'chadan o'ta turib, namozshom mahalida, dog' qilinayotgan zig'ir yog'ining hidi burnimga urildi, men buni esda tutib qolishga tirishdim. "O'tkan kunlar"ning bir joyiga shu kichkina detal kirgizilganida, berilayotgan tasvirning yana ham odam ishonarli bo'lib chiqqani esimda*"<sup>7</sup>.

Yozuvchining bu e'tirofiga e'tibor bergan Oybek: "Bu parchada tabiat tasviriga

<sup>7</sup> Qodiriy A. Yozuvchi o'z ishi to'g'risida. Qizil O'zbekiston. 1935-yil. 14-mart (60-son).

qo‘shilgan “zig‘ir moyining achchiq isi” kartinani juda jonlantirgan”, deb yozadi. Shunga o‘xshash o‘rinlarda ikki ulug‘ qalb sohibining ko‘ngil sadolari hamohanglik, uyg‘unlik kasb etadi. Oybek Abdulla Qodiriy badiiy-estetik olamini yaxshi angladi. Adib asarlarini talqin va tahlil qilishda jiddiy g‘oyaviy-badiiy masalalarni o‘rtaga tashladi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Oybekning Abdulla Qodiriy asarlariga munosabatida tanqidiy mulohazalari ham talaygina. Biroq bu fikr-mulohazalarni Abdulla Qodiriy to‘g‘ri ma’noda qabul qildi. Adib muhitni, Oybekning o‘sha paytdagi ahvolini, adabiy siyosat o‘yinlarini chuqur his qilganiga shubha yo‘q.

Abdulla Qodiriy adabiy merosi o‘zidan keyingi Oybek va boshqa o‘zbek adiblari ijodi uchun mahorat maktabi vazifasini o‘tadi. Ayni damda qardosh xalqlarning romannavislari

adibni o'zlariga ustoz sifatida e'tirof etishdi. O'zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga oid o'nlab tadqiqotlar, yuzlab maqolalar yozildi. Avlodlari tomonidan yozilgan asarlar adibning tabiati, asil maslagi, imon-e'tiqodi, ijod laboratoriyasining ayrim qirralarini ochishga yordam beradi. Zero, psixobiografik tadqiq usuliga ko'ra maktublar, turli qo'lyozmalar, kundaliklar, shaxsiy arxiv manbalari qatorida ijodkorning yaqinlari va zamondoshlari yozgan xotiralarning yozuvchi badiiy olamini tushunishdagi qadr-qiymati beqiyos. Nemis olimlari uchun I.P.Ekker-manning "Gyote bilan gurunlar" asari bebaho xazina, ulug' adibning ma'naviyat mulkiga kirishda sehrli kalit sanaladi. Bir mahal rus adiblaridan A.P.Chexov bilan M.Gorkiy o'zaro suhbatlarida nemislarga havasi kelib, Lev Tolstoyning dono fikrlari isrof bo'layot-

ganidan, unga fidoyi kotib yetishmaganidan afsuslanadi. Gyotega nasib etganidek, deylik, L.Tolstoy va A.Qodiriydek ulkan iste'dodlar yonida "ekkermanlar" ning istiqomati milliy adabiyotni boyitgan bo'lardi...

Har o'tgan kun, har o'tgan davr tarixga, xotiraga aylanadi. Xotiralar esa, oradagi masofa kengayib borgani sari soviydi, xira tortadi, yoddan ko'tariladi. Eng qizig'i, agar ijod ahliga oid xotiralar sun'iy, to'qilgan, g'ayritabiiy bo'lsa, garchand ular zar muqovalari kitoblar ichiga joylab qo'yilsa ham, baribir esdan chiqadi. Chunki ijodkorning insoniyat xotirasiga abadiy muhrlanishi uchun, eng avvalo, o'quvchilar izlab, topib, suyib, o'ylab, quvonib, yig'lab o'qiydigan asarlari, adabiy durdonalari bo'lishi lozim.

Abdulla Qodiriy to'g'risida O.Yoqubov, P.Qodirov, T.Malik, O'.Hoshimov, X.Sulto-



nov, X.Do‘stmuhammad, N.Boqiy va boshqa o‘zbek adiblarning e‘tiborga molik asarlari, adabiy maqolalari, suhbatlari paydo bo‘ldi. Shuningdek, qodiriyshunos sifatida ko‘plab o‘zbek va xorijlik olimlar adibning hayoti va ijodiga munosabat bildirishdi.

Xayriddin Sulstonovning “Ra‘no gulining suvi”, “Moziydan bir sahifa”, Abdulhamid Ismoilning “Jinlar bazmi yoxud katta o‘yin”, Xurshid Do‘stmuhammadning “Yolg‘iz” asarlari zahirida o‘zbek adabiyotida Abdulla Qo-

diriyning badiiy obrazi paydo bo'ldi. Adib va uning asarlari hamda qahramonlariga bag'ishlangan o'nlab she'rlar yozildi. Abdulla Qodiriy asarlarining kino va teatr talqinlari yuzaga keldi. Adib asarlari xorij tillariga tarjima qilindi. Bu masalalar maxsus tadqiqotlar uchun alohida mavzular sanaladi.

Xullas, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rganish, adib ijodiy merosidan bahramand bo'lish, bu — doimo davom etadigan, avlodlar nazdida yangilanib turadigan sog'inchli, ayni damda, o'tmishga aylanmaydigan adabiy va abadiy qadriyatlar sirasiga kiradi.

### **Jahonga yuz tutgan adib**

O'tgan XX asrda uzoq va yaqin xorijda qaysidir ma'noda qodiriyshunoslik shakllandi. Ulardagi talqinlar o'zbek olimlari fikrlariga yaqin turadi; ba'zilar ma'lumot xarakterida bo'lsa, ayrimlarida o'ziga xos individual yondashuvlar ham kuzatiladi.



Amerikada Abdulla Qodiriy ijodini **“The Relationship of Abdulla Qodiriy’s Historical Novels to the Earlier Uzbek Literary Traditions”** (University of Washington, 1980), ya’ni **“Abdulla Qodiriy tarixiy romanlarining ilk o‘zbek adabiy an’analari-ga aloqasi”** (Washington universiteti, 1980) mavzusida tekshirib, doktorlik dissertatsiyasi yozgan **Xristofor Maykl Murfi** adib romanlariga “struktural adabiyotshunoslik uslubi bilan” yondashdi.

Germaniyada **Rudolf Radler** muharrir-ligi ostida nashr etib kelingan ko‘p tomlik **“Kindlers Neues Literatur Lexikon”** i-ning 1990-yilda bosilgan 9-jildida **“Abdulla Kadyri. Otgan kunlar”** degan ikki betlik maqola bor. Ta’kidlash joizki, g‘arb olimlari, umuman, xorijlik o‘zbekshunoslarning 90-yil-larda yozgan ilmiy ishlari 60-70-yillardagi-

ga nisbatan chuqurroq. Ularda mafkuraviy-siyosiy talqinlarga qaraganda qiyosiy-ma'rifiy tahlillar ko'proq ko'zga tashlanadi. Shu e'tibordan o'zbek adabiyotshunoslariga yaxshi tanish olmoniyalik olimi, Gumboldt universiteti professori **Ingeborg Baldaufning "Auf der Suche nach der Wahrheit"**, ya'ni **"Haqiqat axtarib"** degan maqolasini eslab o'tish mumkin. Olima bunda muayyan bir falsafiy tushuncha — haqiqatning evrilishlarini, har davrda haqiqat turli mohiyat tashiganini, shunga ko'ra har zamonning o'z haqiqatlari bo'lishini turli o'zbekcha matnlar ustida tadqiq etadi. "Haqiqat" tushunchasi "jadidchilik, inqilob, millatchilik va g'ayridinchilik ruhidagi matnlarda" turlicha aks ettiriladi. I. Baldauf fikrini jadid adiblari ijodidan olingan ko'chirmalar bilan isbotlaydi.

Germaniyada Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o'rgangan olimalardan yana biri **Zigrid Klaynmixel**dir. Bu olimani o'zbek adabiyotshunoslari yaxshi taniydi. Z.Klaynmixel o'zining 1993-yili nashrdan chiqqan 279 betlik **“Sharqona yozish an'anasining rivojlaniishi. 1910-1934-yillar o'zbek dramasi va nasriy asarlar tadqiqi”** deb nomlangan kitobining maxsus bir bo'limini (201-263-betlar) Abdulla Qodiriy romanlariga bag'ishlaydi. “Turkiston hayotidan Abdulla Qodiriyning ikki romani” deya atalgan mazkur bo'lim: “XX asrda yozilgan hech bir o'zbek kitobi haqida Abdulla Qodiriyning “O'tkan kunlar” (O'zbeklar hayotidan tarixiy roman) romani xususidagi kabi ko'plab maqola, xotira, latifa va afsonalar tarqalgan emas”, degan jumla bilan boshlanadi. So'ng Abdulla Qodiriyning obro'-e'tibori, o'zbekcha manbalarga tayanib,

“O‘tkan kunlar”ning yozilish tarixi, kitobning xalq orasida juda sevib o‘qilgani kabi masalalarga to‘xtaladi.

Zigrid Klaynmixel qalamiga mansub yana bir manba **“Die Gestalt des Prosaschriftsteller Abdulla Qadiri im geistigen und kulturellen Leben Uzbekistans”** (“Yozuvchi Abdulla Qodiriyning O‘zbekiston ma’naviy va madaniy hayotidagi o‘rni”) deb nomlanadi<sup>8</sup>. Bunda olimaning Abdulla Qodiriy shaxsiyatini, ijodini yaxshi bilishi o‘z ifodasini topgan...

Jo‘ra qori Bo‘tako‘z 1961-yili “O‘tkan kunlar” romanini Karachida arabiy imloga asoslangan o‘zbek yozuvida o‘z mablag‘idan nashr qildirib muhojirotdagi o‘zbeklarga bepul tarqatadi.

Qismat o‘laroq Turkiyada istiqomat qilgan ulkan tarixchi olim **Zaki Validiy To‘g‘on**

<sup>8</sup> Bomberg Mittelasiestudien. — Berlin, 1994. S. 153–168.

o‘zining **“Buyuk turk eli Turkiston va yaqin tarixi” kitobi** Abdulla Qodiriyga tegishli fikrlar yozadi<sup>9</sup>. Zaki Validiyning **“O‘tkan kunlar”** romaniga bergan bahosi umuman ma‘qul. Sharhida romanning syujetini qisqacha gapirib beradi. Tarixchi olimni romandagi tarixiy voqelik va tarixiy shaxslar qiziqtiradi. Asardagi obrazlarga vatanparvar sifati berilishi juda o‘rinli gap.

**1993-yili turk kitobxonlari “O‘tkan kunlar”ni Ahsan Botur tarjimasida o‘qidi.** Shuningdek, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga oid eng keyingi tadqiqotlardan biri sifatida turkiyalik yosh olim Aziz Merhan yozgan **“Abdulla Qodiriy va o‘zbek romanining tug‘ilishi”** kitobini ko‘rsatish mumkin<sup>10</sup>. Abdulla Qodiriy ijodini turk o‘quvchilari, ziyo-

<sup>9</sup> Zaki Validiy To‘g‘on. **“Buyuk turk eli Turkiston va yaqin tarixi”** (2-nashri). — Istanbul, 1981. 508-509-betlar.

<sup>10</sup> Aziz Merhan. **Abdulla Qodiriy ve Ozbek Romaninin Dogusu.** — Ankara, Grafiker. 2008. — 272 s.

lilariga tanishtirishda bu kitobning ahamiyati katta.

Ozarbayjonlik olimi **Olmos Ulviy** o‘zining “O‘zbek adabiyoti” kitobida Abdulla Qodiriy va Ozarbayjon mavzusiga alohida to‘xtaladi<sup>11</sup>. Bu o‘rinda o‘zbek adabiyotiga tegishli ma’lumotlarni qayd qilish bilan birga “O‘tkan kunlar” ning ozarbayjon tiliga tarjimalari yuzasidan ham ma’lumot beradi. Ma’lumki, 1928-yili Xolid Sayid va Qamchinbek romanni ozarbayjon tiliga tarjima qilgan edi. Ayni tarjimaga o‘zlari so‘zboshi yozib, Abdulla Qodiriyning tarixiy xizmatlari, romanning qadr-qiyamatiga baho beradi. Asarni ozarbayjon tiliga tarjima qilar ekan, ayrim o‘rinlarini qisqartirganini ham aytadi. Shu boisdan bo‘lsa kerakki, roman-ning yangi tarjimasiga zarurat paydo bo‘la-

<sup>11</sup> Olmos Ulviy. Abdulla Qodiriy va Ozarbayjon /O‘zbek adabiyoti. — Boku: “Ilm va tahsil” nashriyoti, 2016. — B. 61–76.

di. Olmos Ulviy ma'lumotiga ko'ra, "O'tkan kunlar"ni 1960-yili yozuvchi Is'hoq Ibrohimov ozarbayjon tiliga qayta tarjima qiladi.

**"O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari L.Bat va V.Smirnova tomonidan rus tiliga tarjima qilinadi.** O'z vaqtida Saidrasul Alizoda "Mehrobdan chayon" romanini tojik tiliga o'giradi.

Arno Shpext "O'tkan kunlar" romanini rus tilidan qilgan tarjimasi orqali nemis o'quvchilariga yetkazadi. Umuman olganda, adib asarlarining boshqa xorij tillariga tarjimalarini ham maxsus o'rganish lozim.

Abdulla Qodiriy turkman yozuvchilarining ham, xususan, "Qismat" romani muallifi Xidir Deryayevning sevimli ustozlari bo'lgani ma'lum.

Abdulla Qodiriy yozgan asarlar turli millat o'quvchilarining, shuningdek, dunyoning turli taraflarida istiqomat qilayotgan o'zbeklar-

ning sevimli asarlari sirasiga kiradi. Darvoqe, **“O‘tkan kunlar” romani 2017-yil kuzida Afg‘onistonning “Karvon” nashriyotida bosilib chiqdi.** Romanni arab imlosiga afg‘onistonlik jurnalist, ijodkor va tarjimon Muhammad Hasan To‘lqin o‘girdi.

2020-yili “O‘tkan kunlar”ni ingliz tiliga tarjima qilgan amerikalik tarjimon Mark Riiz e’tirofiga ko‘ra: “O‘tkan kunlar” romani bosh qahramoni “Otabek – jadid” edi. U yana ta’kidlaydiki, Abdulla Qodiriy o‘z romani orqali jadid sifatida o‘z zamonasida “kelajak avlodni yaqinlashib kelayotgan xavf-xatardan” ogohlantiradi ham.

Xullas, Abdulla Qodiriy asarlarining dunyo bo‘ylab tarqalish jarayonlari, tarjima, tadqiq va talqinlari XXI asrda ham davom etmoqda. Shuning uchun hozirgi mavjud ilmiy-tahliliy asarlar yoniga dunyoning turli millatlari



orasidan kelgusida yetishib chiqadigan qodiriyshunoslarning yangidan-yangi talqinlari qo‘shilishi tabiiy.



# HIKMATLI SO‘ZLARI



Kelingiz yoshlar, ziyolilar bu kun g'ayrat  
qiling,  
Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz...

\* \* \*

Biz yangi davrga oyoq qo'ydik, bas, biz har  
bir yo'sunda ham shu yangi davrning yangi-  
liklari ketidan ergashamiz.

\* \* \*

Tarixiy romanning bir yaxshi xususiyati  
shundaki, u bir jihatdan badiiy asar sifatida  
kitobxonga maroq beradi, ikkinchi jihatdan  
o'quvchini bir qadar tarix bilan oshno qiladi...

\* \* \*

Yozuvchini, garchi shaxsan tanilmasa ham,  
asarlarni o'qib, qanday tabiatli shaxs ekani-  
ni g'oyibona bilish, tasavvur qilish mumkin.  
Chunki u asarlarida asosan o'z tabiatini, ruhini  
tasvirlaydi.



\* \* \*

Asar yozsam, ma'lum dovongacha qiynalib bezanglab boraman. Keyin menda shunday bir zavq paydo bo'ladiki, asar kechalari tushimga kirib chiqadi, uni bitirmaguncha ko'nglim tinchimaydi.

\* \* \*

Har bir asarim — bir farzandim, chiroqchimidir.

\* \* \*

Yozuvchi turmushni har tomonlama o'rganishi, buning uchun uning har sohalaridan xabardor bo'lishi kerak. Qisman boshimdan kechirganlarim mening yozuvchi bo'lishimda kattagina rol o'ynagan. Haqiqiy yozuvchi bo'lishni istagan yoshlarimiz ham dastlab shu turmush ichiga kirishlari, uni bilishlari kerak.

\* \* \*

Bir asarni yozishda avval shu yozmoqchi bo'lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o'rganib chiqaman. Men biror joy to'g'risida asar yozmoqchi bo'lsam, o'sha joyni avval necha martaba ko'rgan bo'lsam-da, yana borib, tekshirib, yaxshiroq o'rganib kelaman.

\* \* \*

Umuman, mayda materiallar o'quvchida yozuvchiga ishonch uyg'otadi. Lekin men har qanday detallarni ham asarga kirgizavermayman. Ularni asarning xuddi joyida tasvir etilayotgan ahvolga, ideyaga to'g'ri kelishkelmasligini surishtirib ishlataman. Yozuvchi bo'laman, degan har bir kishi o'zida mana shunday, turmushning mayda-chuydalarigacha kuzata oladigan qobiliyatni o'stirishi kerak.

\* \* \*

Yozuvchi bo'ladigan har bir kishi adabiyotdagi oqim va maktablarni yaxshi bilib olishi kerak. Eng yaxshi yozuvchilarning asarlarini

bir necha qaytalab o'qish zarur. O'qiganda ham yozuvchining nima demoqchi ekanini va o'z fikrini qanday yo'l bilan o'quvchiga anglata olganini diqqat qilib, surishtirib bori-shi kerak. Shundagina yozuvchilardan hunar o'rganish mumkin.

\* \* \*

Qalam — o'qlog'i, adabiyot — ketmon bo-zori emas. Yo'sinsiz ravishda xotiraga kelgan har bir so'zdan jumlar to'qimoq fazilat sanalmay-di. So'z qolip, fikr uning ichiga qo'yilgan g'isht bo'lsin, ko'pchilik xumdonidan pishib chiqqach, yangi hayot ayvoniga asos bo'lib yotsin.

\* \* \*

Fikrning ifodasi xizmatiga yaramagan so'z va jumlalarga yozuvchi aslo o'rin bermasligi lozim. Shundagina iborani tuzatib bosishga yo'l qo'ymagan, mustaqil uslub va ifodaga ega bo'lib, o'zingizning qalamdagi istiqbolingizni ta'min qilgan bo'lasiz. Kishiga ishonish va

behuda kuchanish ma'qul gap emas. Birovga orqa qilib, o'zingizda bo'lgan talantning ruhiga fotiha o'qiy ko'rmangiz. Bir soatda emas, o'n soatda yozish, bir qayta emas, o'n qayta tuzatish kishining yordamiga termulishga qaraganda ham foydali, ham umidlidir.

\* \* \*

Hikoyani "sersuv" qiladigan narsalardan biri ko'rsatish o'rniga so'zlab berishdir. Agar Ochumelovning buqalamun ekanini uning so'zlari orqali ko'rsatilmay, avtor tomonidan ta'riflansa, dunyo-dunyo so'z ketar edi. Chexov buni o'zi aytib bermasdan, Ochumelovning o'z so'zi bilan qisqa satrlarda ko'rsatadi-qo'yadi.

\* \* \*

Uslub degan narsa, til bilishga bog'liq bo'lgan va har bir yozuvchi tilining xarakteri kabi bo'lib tanilgan bir xususiyatdir. Yozishga malaka hosil qilingach, uslub ham o'z-o'zidan tug'iladi.

\* \* \*

Satru (satira) turmushdagi yetishmagan va ortiqcha yerlarni ko'z oldimizga mahkum etib ko'rsatuvchi bir oynadir.

\* \* \*

Komediya deganda nima to'g'ri kelsa, shundan kulavermak emas, balki o'zining tub shartiga muvofiq etib kulmak, uni yozganda mavzuni turmushimizning naq chirik bir joyidan olmoq va, shu bilan barobar, adabiyot tarozusiga solib yozmoq kerakdir.

\* \* \*

Kulgilikni yozganda, uni siz yasagan bo'lib ko'rinmang, balki o'zi yasalgan bo'lsin. O'z holini o'zi arz qilsin. Toki, o'quvchingizgina emas, hatto kulgida qolgan raqibingizning o'zi ham mojarosiz siz bilan birgalashib kulishmaka majbur bo'lsin.

Adabiyotda bir necha xil kulgu yo'llari bo'lsa ham (masalan, piching, kesatish, kinoya, tag'ofil va boshqlalar), lekin eng mo'tabari xarakter kulgisidir.



\* \* \*

Adabiyot dunyosida ikki turli tanqid bor: jiddiy va hajviy tanqid. Jiddiy tanqid o'zining kuzatgan nishonasi ustida o'zgarishlar yasasa ham, ammo ko'pincha avomga majhulroq bo'lib o'tadi. Aytish mumkinki, jiddiy tanqid bahs qilingan masalaning o'z ahliga, ya'ni yuqori tabaqa ziyolilariga maxsus kabidir. Undan so'ng jiddiy tanqid turmushning har bir burchagiga kirib yurish uchun ham tanazzul etolmaydi. Bu jihat bilan qaralsa-da, u ommaviylik xususiyatidan yiroqdir.

Tanqidning ikkinchi xili bo'lgan hajviy tanqid (satira ma'nosi bilan) ommaviy deyilsa bo'ladi. Chunki kulgi tanqid turmush bo'ylab uchguvchi burgutdir. Hayot sharoitiga yaramagan zaif, qizg'anch, manfur, muzir shuning singari unsurlar unga yemdir.

Hajviy tanqid avomning ruhiga yaqin va his etgan, ammo ifoda qila olmagan masalalariga tarjimonidir. Xulosa: hajviy tanqidning tabiatidagi kulgulik unsuri avomning mahbubi, tag'in to'g'risi, uning o'z ijodidir.

\* \* \*

Bir xalqning bir sohada tutgan mavqei madaniyatdagi darajasiga, ya'ni saviyasiga qarab hukm qilinsa ham, ammo hajviyotdagi darajasi bunga qaramaydi. Xalqning kulgulik dahosi aksari o'sha qavm intiboh tarixining qaldirg'ochi bo'lib ko'rinadi. Masalan, Italiyada Dante, Ispaniyada Servantes va Rossiyada Gogol kabi. Mazkur daholarni yetishtiruvchi bosh omil buzuq sharoit edi.

\* \* \*

Ba'zilar "asarlaringizda maqsadga shoshilasiz", deyishadi. Asarning zerikmay o'qilishi ana shu, ortiqcha tafsilotlarga kirishmay, maqsadga shoshilishdadir.

\* \* \*

O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar.

\* \* \*

Insonda husn bo'lsa-ku, aql, zakovat bo'lmasa, u qog'ozdan yasalgan gulga o'xshaydi.

\* \* \*

Kitobni tushunib mutolaa qilish kerak. Ba'zan tushunib mutolaa qilishning o'zi kifoya qilmaydi. Fikrlar tez unutilishi mumkin. Bunday hollarda ayrim zarur fikrlarni yod olish kerak bo'ladi.

\* \* \*

Hamma til ham qo'shni tillardan "qarz" oladi. Busiz iloji yo'q. Asar faqat o'z tilidagina yozilsa shirasiz, quruq chiqadi. Yozuvchi o'z xalqining tilini, folklorini kamol o'rganishi shart va bir necha tillarni, ayniqsa, yaqin qo'shni tillarni bilishi fazilat. Shundagina tili boyiydi, asari jonlanadi.

\* \* \*

Biz haqiqatni hayotdan oldik. Hammadan ilgari shaxs o'zini tanisin! Zero, "O'zini bil-

magan o'zгани bilmas" so'zi turmush onasining dard chekib tuqqan to'ng'ich o'g'lidir.

\* \* \*

Shu kungacha manim mezonim vijdonim bo'lib keldi, bundan so'ng ham jilovim o'sha-ning qo'lida...

\* \* \*

Haqiqat — ochib so'zlashdadir.

\* \* \*

Jasorat — ayb emas.

\* \* \*

Biznikilar "Bo'rk ol!" desa, bosh olishga hozir...

\* \* \*

Nima ko'p dunyoda, yomon ko'p, yaxshi ko'p ishni ko'ra olmag'uvchi ko'p.

## “O‘tkan kunlar” romanidan

1264-inchi hijriy, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

\* \* \*

– Ko‘nglingiz farishtalar ko‘nglidek.

– Sizning ham ko‘nglingiz...

Ikki jon, ikki yurak go‘yoki bittadek bir-birini anglar, birisidan-birisiga o‘tib yurar edi shu vaqt.

\* \* \*

Yusufbek hoji nihoyatda tama’siz, xalq manfaatini kuzatkuchi bir odam ekan.

\* \* \*

Muhabbat degan narsa juda oz kishilarga nasib bo‘ladir, an bir durri bebahodir.

\* \* \*

Modomiki, o'z g'arazi yo'lida istibdod orqali el ustiga hukmron bo'lg'unchilar yo'qotilmas ekanlar, bizga najot yo'qdir, magar shunday g'arazchilarni ular kim bo'lsalar ham ish boshidan quvlash va ular o'rniga yaxshi xolis odamlarni o'tquzish najotimizning yagona yo'lidir.

\* \* \*

Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fotihlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilg'anlari bir o'lkani halokat chuquriga qarab sudrag'uchi, albatta, Tang-rining qahrig'a sazovordir, o'g'lim! Gunohsiz bechoralarni bo'g'izlab, bolalar yatimxonalarini vayron qilg'uchi zolimlar — qurtlar va qushlar, yerdan o'sib chiqq'an giyohlar qarg'ishig'a nishonadir, o'g'lim!..

\* \* \*

Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi.



Yoshim oltmish beshka yetib, bir vaqt bo'lsin,  
ibodatimni janobi Haqqa bevosita yo'naltir-  
g'animni va ko'ngil ko'zim ochilib qilg'an saj-  
damni xotirlay olmayman. Bu aldanishim ersa,  
Haq tarafidan bir tanbeh, bo'lmag'anlarga  
bo'lishmoqchi bo'lg'anim uchun bir kinoyadir.

\* \* \*

Ayo charx, etding ortuq jabr bunyod,  
Ko'zim yoshlig', tilimda qoldi faryod.  
Hayotim lolazoridin ayurding,  
Yoqib jonim, kulim ko'kka sovurding.  
(Kumush qabridagi yozuv)

### **“Mehrobdan chayon” romanidan**

Agar Farhodning Shirin, bo'lsa  
Majnunlarning Laylosi,  
Nasib o'lmish menga gulshan aro  
gullarning Ra'nosi.  
(Mirzo)

Agar or etsa Layli haqlidir

Qaysning jununidin,

Ne baxt, Ra'no, xaridoring

talab ahlining Mirzosi.

(Ra'no)

\* \* \*

Ishq davosi avom o'ylag'ancha vasl emas,  
hajrdir. Zero, vasl ishq o'tini so'ndirg'uchi,  
hajr esa kamolatka erishdirguchidir...

\* \* \*

Dunyoda do'sti sodiqni topish qiyin ekan.

\* \* \*

O'rda arbobi bu kun peshindan biroz ilgari-  
roq mujassam bir vijdon, tog'yurak bir yigit  
va o'lim sari kulib kelguchi bir arslonni o'z  
tarixida birinchi martaba ko'rdi va tong ajab-  
da qoldi. Bu ulug' jasorat bir necha daqiqa-  
larg'acha zulm itlarini sukutka soldi, ularni  
ishdan to'xtatdi.



Men ham bir inson, ko'kdan tushkan farish-ta emasman, o'z ustimdagi g'iybatlardan, hayvoncha qiliqlardan, izzati nafsimga to'qing'an harakatlardan achchig'lanaman.

\* \* \*

Haq hamisha g'olibdir, haqsizlik ersa mag'lub.

\* \* \*

— Gunohsizni menim ko'z o'ngimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblayi olam, — dedi va o'zini tashqarig'a torta boshlag'an jallodlarni arslonlarcha siltab yubordi, — sizda adolat bormi, janob?!

Qo'rqunch bu hayqiriq Xudoyorni insofka keltirdi.

---

# E'TIROF

## Jahon adiblarining e'tirofi

Jahon adabiyotida uslub jihatidan farq qiladigan beshta romanchilik maktabi sayqallanib ko'zga tashlanib turadi. Ular ingliz, fransuz, nemis, rus va hind romanchilik maktablaridir. Endi oltinchi romanchilik maktabi yaratildi. Bu maktabni yaratgan Abdulla Qodiriydir.

**Yevgeniy Bertels,**  
*rus sharqshunos olimi*

\* \* \*

Abdulla Qodiriy bugungi kunda o'z mamlakatida ham, chet ellarda ham juda kuchli qiziqish uyg'otgan O'rta Osiyo adabiyotining o'sha yillardagi to'lqinli taraqqiyoti boshida turgan adiblardan edi.

**Niota Tun,**  
*nemis adabiyotshunosi*

\* \* \*



“Haqiqat ochiq so‘zlashdadir”, degan mashhur ibora muallifi Abdulla Qodiriy jadidchilik muhitidan o‘tib chiqdi. Uning asarlarida boshqa yozuvchilarning o‘sha davrda yozilgan asarlarida bo‘lganidek, ma‘rifiy-tarbiyaviy ruh ufurib turadi.

**Ingeborg Baldauf,**  
*nemis olimasi*

\* \* \*

Qodiriyning har ikki romani ikki yechimga ega. “O‘tkan kunlar”da “qora Homid” ustidan qozonilgan g‘alaba ertaklarda uchraydigan baxtli yechimni eslatadi. Vaholanki, bu bilan romanning ikkinchi qismi tugab, uchinchi qism boshlanadi. Kumush va Otabekning o‘limi baxtsiz yechim bo‘lsa ham, u realistlik yechimdir, u ertaklarda bo‘lishi mumkin emas.

“Mehrobdan chayon” romanining nihoyasi, aslida, Ra‘noning xon saroyiga keltirilishi bilan tugashi kerak edi. Uning otasi to‘yga rozilik bergan. Anvar o‘zini chetga olgan, to‘y saru-

polari allaqachon qabul qilib olingan. Ammo asarda real yechim yo'q. Asarga g'aroyib, sarguzashtli hodisani qo'shish natijasida se-vishganlar o'sha taqdirdan qutulib qoladilar. Ularning maqsadi, o'sha paytda allaqachon Rossiya qo'liga o'tgan Toshkentga yetib olish. Bu yerda ular Qo'qon xonining ta'qiblaridan qo'rqmasa ham bo'ladi. Bu ikkinchi baxtli xotimaga ertaklarda uchraydigan yechim sifa-tida qarash mumkin.

**Zigrid Klaynmixel,**  
*nemis olimasi*

\* \* \*

Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan ikki roman tarixiy roman elementlarini ko'rsatishga ancha yaqinlashdi. Shuningdek, ushbu ikki roman ma'lum bir xususiyatlar bilan G'arb roman-chiligidan farqlanib, ajralib turadi.

Qodiriyning Zaynabga munosabati gu-manitar va realistik... Bu munosabat boshqa mualliflarning ayollar tasvirlangan melodrama-

tik shaklli asarlaridagi munosabatlardan butkul farq qiladi. Prozada ijod etgan ko'plab yozuvchilar, garcha ayollarning nisbatan ishonarli obrazlarini aks ettirgan bo'lsalar-da, hech biri Qodiriy kabi uning ichki xususiyatlari, ichki dunyosini bergan emas.

**Eden Nabi,**  
*eronlik olim*

\* \* \*

Chindan ham Abdulla Qodiriy jahon adabiyotining eng buyuk vakillari qatoridan joy olishga munosib yozuvchidir.

**Mark Riiz,**  
*amerikalik tarjimon*

\* \* \*

Abdulla Qodiriy — Julqunboy yuksak romanlar yaratdi. Uning romanlari 20-yillarda go'yo tekis sahroda to'satdan Pomir tog'lari vujudga kelganday paydo bo'ldi. Qodiriy asarlarini Qurmong'oz yoki Chaykovskiy

kuylarini tinglaganday dam olib, miriqib, gasht qilib o'qiysan kishi... Uning tili ravon, shirali, musiqiy, menimcha, hamma O'rta Osiyo xalqlariga ham tarjimonsiz tushunarli.

**Muxtor Avezov,**  
*qozoq adibi*

\* \* \*

Mening o'zim ham Tolstoydan, Gorkiydan, Sholoxovdan o'rganmasam, tatar yozuvchisi Ibrohimovning "Bizning kunlar"ni, "Qozoq qizi"ni, o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"ini, "Mehrobdan chayon"ini o'qib, shulardan ibrat olmasam "Dadil qadam"ni boshlay olmagan bo'lardim.

**Berdi Kerboboyev,**  
*turkman yozuvchisi*

\* \* \*

O'zbek adabiyoti tarixida ham, birinchilar o'laroq, hayotiy, tarixiy bir roman yozilishi bilan o'zbek ijtimoiy hayotida, o'zbek xalqi-

ning yozma nafis adabiyotida jonlanish orzusi tug'ildi. "O'tkan kunlar" o'zbek xalqining o'tmishini, xonlar davridagi johilona siyosatni, xalqning feodalizm davrida chekkan azob va uqubatlarini ko'rsatgan bir romandir...

Roman o'zbek adabiyotining birinchi romanlaridan hisoblanadi, asarda, bir tarafdin, o'zbek hayoti, xotin-qizlar turmushi, ularning yumshoq tabiatlari, sadoqatlari, shirin odatlari tasvirlangan, ikkinchi tarafdin, ham ularning oila ichidagi harakatlari nafis suratda ko'rsatilgan. Abdulla Qodiriy o'zbeklarning Mirza Fatalisidir. Bu roman O'zbekistonda har bir savodxon vatandosh tomonidan sevilib-sevilib o'qilmoqdadir.

**Xolid Said va Abdulla Qamchinbek,**  
*ozarbayjonlik tarjimonlar*

\* \* \*

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani menda bir umrga unutilmas taassurot qoldirgan va ilhom bag'ishlagan. Shundan ke-



yin menda turkman xalqining o'tmishi haqida roman yozish ishtiyoqi tug'ildi. Katta niyat bilan "Qismat" romanim ustida ish boshladim.

**Xidir Deryayev,**  
*turkman yozuvchisi*

\* \* \*

Abdulla Qodiriy o'zining g'oyat siqiq, ammo chuqur lirikaga yo'g'rilgan jumalari bilan kitobxonni maftun qiladi. Uning asarlaridagi har bir detal o'zida yuksak ma'no ifoda etadi, mohir zargar tomonidan yasalgan buyum yanglig' jilolanadi.

**Jalol Ikromiy,**  
*tojik yozuvchisi*

\* \* \*

Abdulla Qodiriy o'zining yirik romanlarida olgan davrning turmushini nihoyatda jonli qilib ko'rsatadi, o'sha davrning jonli odamlarini gavdalantiradi. U nihoyatda ravon, shirali va ma'noli qilib tasvirlaydi. Uning asarlarini

o‘qiganda butunlay erib, g‘arq bo‘lib ketasan. Til shirali va sodda. Uning 1923-yildan keyin “O‘tkan kunlar” nomida yirik bir romani bosildi. Mundarijasi Xudoyorxon davrindan olinib yozilgan bu romanni o‘qigan vaqtda o‘zingni butunlay shu davrning qahramonlari orasida yurganday his qilasan. Xudoyorxon zamonasidagi idora usuli, u yerdagi fisq-fujurlarni, o‘zbek turmushidagi yaramas odatlarni fosh etib, qattiq tanqid qilgan bu roman haqiqiy realistik yo‘l bilan yozilgan.

**Zarif Bashiriy,**  
*tatar adibi*

## O'zbek adiblarining e'tirofi

O'zbek onasi yaqin o'rtada ikkinchi Abdulla Qodiriyning tug'masa kerak.

**Abdulhamid Cho'lpon**

\* \* \*

Abdulla Qodiriyning "Tinch ishi", "Uloqda"si adabiyotimizdagi go'zal hikoya namunalaridir... Rivoya asarlari orasida eng muhim o'rin romanlarga berilgandir; biroq adabiyotning eng og'ir, eng qiyin sho'basi ham roman yozmoqdir. Bizning adabiyotda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar"idan boshqa roman hali maydonga chiqmagandir.

**Abdurauf Fitrat**

\* \* \*

Abdulla Qodiriyning prozasi, birinchi navbatda, g'oyatda hayotiyiligi bilan ajralib turadi. Xalqning boy va ajoyib tilini g'oyatda yax-

shi bilganligi uning asarlaridan yaqqol sezilib turadi. Abdulla Qodiriy romanlari ana shunday go'zal til bilan yozilgan. U ... tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realist san'atkor edi.

**Oybek**

\* \* \*

Yevropa adabiyoti gazi bilan o'lchaganda ham to'laqonli asarlar yozgan, o'zbek romanchiligini boshlab bergan ulkan adibdir.

**Abdulla Qahhor**

\* \* \*

Abdulla Qodiriy o'z romanlari bilan favqulodda iste'dod sohibi, yirik asarlar ustasi ekanini isbotladi.

**Maqsud Shayxzoda**

\* \* \*

Abdulla Qodiriy jahonbilgich, jahonkamtar, xushsuhbat va bor-yo'g'i butun sajiyasi va siymosidan ayon, bir gaplik, o'ziga o'ta ishongan, zabardast qalamkash edi.

**Mirtemir**

\* \* \*

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotiga xuddi momaqaldiroqdek gulduros bilan kirib keldi, chaqmoqdek hammaning diqqatini o'ziga jalb etdi... Qodiriyning o'zbek adabiyotiga qo'shgan eng katta hissasi, u o'zbek xalqi tarixida birinchi bo'lib realistik prozaga asos soldi.

**Izzat Sulton**

\* \* \*

Qodiriyning xalqimizga qilgan xizmatlari beqiyos. Adib o'z asarlari bilan xalqimiz ongiga yetkazgan narsaning hech bir qiyosi yo'q. Uni so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. U o'z hayotida millat dardi, Vatan muhabbati, mustaqillik orzusi bilan yashadi.

**Shukrullo**

\* \* \*

Abdulla Qodiriy o'zining sevimli qahramoni Yusufbek hoji tili bilan bizni ahillik va inoqlikka chaqiradi, millat uchun noahillik illatidan yomon illat yo'qligi haqida tinmay ogohlantirib keladi. Dono adibimizning bu so'zlari sevimli diyorimiz mustaqillikka chiqqan bu saodatli kunlarda alohida ahamiyat kasb etmoqda... Baxtimizga Abdulla Qodiriy asarlari adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin oldi. Abadiy barhayot asarlar doim yangi o'y, yangi fikr tug'dirishi tabiiy ekan, demak, bu asarlarning doim diqqat markazida turishi ham tabiiydir.

**Odil Yoqubov**

\* \* \*

Bu ulug' adib adabiyotimiz rivojiga qimmatli hissa qo'shgan, o'zbek romanchiligiga asos solgan san'atkor yozuvchidir. Bugina emas, Abdulla Qodiriy o'zbek realistik prozasining shakllanishida — uning ibtidoiy bayondan jonli tasvirga o'tishida, o'zbek adabiy

tilining muayyan normaga tushishida katta rol o'ynagan san'atkordir.

**Matyoqub Qo'shjonov**

\* \* \*

O'zbek ziyolilarining qurultoyida zalning tik turib chalgan gulduros qarsaklari ostida ulug' o'zbek adibi Abdulla Qodiriyning oqlangani e'lon qilindi. O'sha kezlarda zalda Abdulla Qodiriyning ko'rgan, ehtimolki, u bilan shaxsan muloqotda bo'lgan odamlar ancha-muncha edi. Ko'plar o'shanda oshkora yig'ladi.

**Ozod Sharafiddinov**

\* \* \*

Haqiqat, hayot haqiqatiga sadoqat — yozuvchining ijoddagi bosh shioridir, ayni shu haqiqat uning uchun adabiyot, san'at asariga, haqiqatgo'ylik, bu yo'lda sobitlik esa ijodkor shaxsiga baho berishning bosh mezonidir. U hamisha ijodkorlarni — hamkasblarini

haqiqatning ko'ziga to'g'ri qarashga chorlaydi. Qodiriy hamisha haqqoniy, xalq diliga, ruhiga yaqin, "hayot va muhitning aksi bo'lgan asarlar"ni yoqlaydi, ijodda "asl hayot tarafdori" ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi.

**Umarali Normatov**

\* \* \*

Qodiriy ingliz, rus, arab tillarida mavjud bo'lgan grammatik shaklni qisqa va lo'nda bo'lgani uchun dadil qo'lladi hamda buni xalq qabul qildi.

... Kishi umrida o'qigan kitoblari ichida shundoq kitoblar bo'ladiki, ular umrining bir qismiga, inson o'zligining tarkibiga aylanib qoladi. "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" men uchun ana shunday kitoblardan. Ular meni odam qilib shakllantirgan. Dunyo-qarashim, yuragim holatini belgilagan, umrim boyligi bo'lgan kitoblar sirasiga kiradi.

**Erkin Vohidov**

\* \* \*



Garchi “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon” sevgi qissasiga o‘xshasa-da, uning zamirida Vatan taqdiri, Vatan qayg‘usi yotadi.

**Tohir Malik**

\* \* \*

### **Abdulla Qodiriyning so‘nggi sabog‘i**

Biringiz Otabek, biringiz Kumush,  
Doim yashnab tursin sevingiz bog‘i.  
Haqiqiy muhabbat bilmasin so‘lish,  
Ustoz Qodiriyning bu ilk sabog‘i.

Adib yuragida alamlar qat-qat,  
Lekin bittasi bor, o‘chmasdir dog‘i:  
Jonni tik ozodlik yo‘lida faqat,  
Bu esa ustozning so‘nggi sabog‘i.

**Abdulla Oripov**

\* \* \*

Men dadam oldida hech mahal reja yoki shunga o'xshash biror dastur ko'rmaganman va o'qimaganman. Chamasi, u kishi hamma plan-rejalarni ipidan-ignasigacha miyada obdan pishirib olardilar...

Dadam meni negadir yoshligimdan birga olib yurishni xush ko'rardilar. Masalan, sayohatga, bog' sayllariga, bozor-o'charga, bosmaxonaga ham olib ketaverardilar. Balki bu meni hayot bilan tanishtirish, jamiyatga o'rgatish, yaxshilardan ibrat olish uchun bo'lgandir.

**Habibulla Qodiriy**

\* \* \*

Dadamning men eslagan xislatlari: juda kamgap, ko'p xayolchan, muloyim va to'g'ri-so'z edilar. Oddiy insonlar bilan ochilib so'zlashardilar. Kalondimog' va mahmadona kishilarni jinlari yoqtirmay, ular bilan suhbatni qisqa qilar edilar. Bizlar bilan so'zlashganda o'ta muloyim, gaplari lo'nda, tushunarli, odob chegarasidan bo'lardi.

**Mas'ud Abdullayev**

## Qodiriyni o'qib...

Yillar o'tib borsa-da, hamon  
Qo'msab-qo'msab o'qiymiz sizni.  
Siz bamisli zangori osmon,  
Biz qo'msaymiz osmonimizni.

Chaqir toshli tungi yo'llardan  
Otda yelib o'tamiz birga,  
Aylantirib Kumushning oddiy  
So'zlarini bokira she'rga.

Yana ortga qaytamiz keyin,  
Kelajakka boqamiz maftun.  
Nimadandir ichikib, qiyin  
O'ylar ichra qolamiz beun.

Keyin yana uy derazasin  
Ochgan kabi sof havolarga,  
Bo'g'riqqan, dim uy derazasin  
Ochgan kabi sho'x navolarga —

Tuyib dilda ma'sum unlarni,  
Titrab-titrab dil larzasidan,

Biz ochamiz “O‘tkan kunlar” ni  
Yuragimiz derazasiday.

**Xurshid Davron**

\* \* \*

### **Qodiriy bobom**

...Tushimga kiradi Qodiriy bobom:  
Tur, deydi, muncha ko‘p uxladim, bolam.  
Boq, bu damda dalada qurib madori,  
Sen uchun ter to‘kar onayizoring.  
U terib bo‘lguncha rizq-u zaringni,  
O‘ynatib tur, chiqib, ukalaringni.  
Va mening salomim ayt, der ularga —  
Bobosin sog‘ingan musichalarga...  
Tushimga kiradi Abdullo bobom,  
Oh, oltin bobom-a, voh tillo bobom!

**Muhammad Yusuf**

\* \* \*

Andisha, uyat, or-nomus, vijdon tu-  
shunchalari Qodiriy romanlarining ma‘naviy  
ustunlaridir. Bu tayanch ustunlar xalqimizning  
ming-ming yillik axloqiy an‘analariga, islom

falsafasi va Sharq ma'rifati sarbonlarining poyidor ta'limotlariga borib taqaladi.

**Xayriddin Sultonov**

\* \* \*

Qodiriy publitsistikasida mavzuning katta-kichigi yo'q. U biror mavzuga shunchaki, qo'l uchida, til uchida qalam urmaydi, balki ochiq-oshkora bayon etayotgan kamchiliklar, illatlarni xalqimiz hayotidan butkul yo'qolib ketishini, shu orqali hayotda, yashash tarzida tom ma'nodagi yangilanishlar yuz berajagini orzu qiladi.

**Xurshid Do'stmuhammad**

\* \* \*

"O'tkan kunlar"ni go'zal axloqiy asar deb bilaman. Ota-onaga, muhabbatga munosabat borasida u tengsiz. Bu axloqni tinimsiz o'zimizga singdirishimiz kerak.

**Nazar Eshonqul**

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. Besh jildlik. Asarlar to'plami. — Toshkent: Info Capital Group, 2017.
2. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. — Toshkent: Adabiyot va san'at, 1986.
3. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy fenomeni. — Toshkent: Info Capital Group, 2019.
4. Bahodir Karim. "O'tkan kunlar" ibрати. — Toshkent: Mashhur-press, 2019.
5. Mas'ud Abdullayev. O'tganlar yodi. — Toshkent: Davr-Press, 2012.
6. Matyoqub Qo'shjonov. Abdulla Qodiriyning tasvir-lash san'ati. — Toshkent: Fan, 1966.
7. Matyoqub Qo'shjonov. O'zbekning o'zligi. — Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994.
8. Sobir Mirvaliyev. Abdulla Qodiriy kashfiyoti. — Toshkent: Mashhur-Press, 2018.
9. Umarali Normatov. Qodiriy bog'i. — Toshkent: Yozuvchi, 1995.
10. Umarali Normatov. Qodiriyning so'nggi iltijosi. — Toshkent: Movarounnahr, 2014.
11. Sherkon Qodiriy. 37-xonadon. — Toshkent: Davr-Press, 2009.
12. Habibulla Qodiriy. Diydor qiyomatga qolsa neta-yin. — Toshkent: Zilol buloq, 2019.

## MUNDARIJA

Adib hayoti.....	4
Ijodi .....	17
Hikmatli soʻzlari.....	121
Eʼtirof.....	137
Foydalanilgan adabiyotlar.....	157

*Ilmiy-ommabop nashr*

## **ABDULLA QODIRIY**

*Muharrir* Saidmurod Xolbekov  
*Badiiy muharrir* Muhammadxon Yusupov  
*Texnik muharrir* Dilmurod Jalilov  
*Sahifalovchi* Axtam Ro'zimurotov  
*Musahhih* Nigora G'aniyeva



Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.  
2022-yil 20-mayda bosishga ruxsat etildi.  
Bichimi 60x84  $\frac{1}{32}$ . Academy Uz garniturası.  
Ofset bosma. 5 shartli bosma taboq. 5,25 nashr tabog'i.  
Adadi 23000 nusxa. 01-raqamli buyurtma.  
Bahosi shartnoma asosida

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.  
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

“HILOL NASHR” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Chilonzor tumani, So'galli Ota k., 5-uy.



YOSHLAR ISHLARI  
AGENTLIGI



**GARCHI MEN TURLIK BO'HTON,  
SHAXSIYAT VA SOXTALAR BILAN, HAM  
ANGLASHILMOVCHILIKLAR ORQASIDA,  
IKKINCHI OQLANMAYDURG'ON BO'LIB  
QORALANDIM...  
...ENDI JISMONIY O'LIM MENGA  
QO'RQINCH EMASDIR...**

**ABDULLA**  
*Qodiriy*

ISBN: 978-9943-6682-7-0



9 789943 668270